


ISSN 2181-5534

ИНФЕКЦИЯ, ИММУНИТЕТ и ФАРМАКОЛОГИЯ



№ 4 / 2025

ИНФЕКЦИЯ, ИММУНИТЕТ и ФАРМАКОЛОГИЯ

Научно-практический журнал

4/2025

Журнал основан в 1999 г.

Редакционная коллегия:

Главный редактор — *профессор Тулаганов А. А.*

1. **Атабеков Нурмат Сатиниязович** - д.м.н., проф., Санитарно-эпидемиологической службы спокойствия и общественного здравоохранения РУз.
2. **Абдихакимов Абдулла Нусратиллаевич** – д.м.н., проф., директор Таш. обл. филиала научно-практ. спец. центра онкологии и радиологии РУз.
3. **Аминов Салохиддин Джураевич** – д.м.н., проф. зав. каф. фармакологии, физиологии ТашПМИ.
4. **Аминжон Каримов** – д.м.н., проф., каф. органического синтеза ТашФарМИ.
5. **Богдасарова Эльмира Сергеевна** – д.м.н., проф., ТашФарМИ.
6. **Таджиев Ботир Мирхашимович** – д.м.н., проф., директор РСНПМЦЭМИПЗ.
7. **Туляганов Рустам Турсунович** – д.б.н., проф., каф. фармакологии и клинической фармации ТФИ.
8. **Маматкулов Ибрагим Хамидович** (зам. глав. редактора), – д.м.н., проф., директор НИИХиФ РУз.
9. **Сабилов Джахонгир Рузиевич** – д.м.н., доцент, заместитель директора детск. нац. мед. центра по науке, образованию и международным связям.
10. **Нарзуллаев Нуриддин Умарович** – д.м.н., проф., БухГМИ.
11. **Максудова Лайло Масхутовна** – (зам. глав. редактора), д.м.н., доцент, каф. офтальмол. центра развития проф. квалиф. мед. раб.
12. **Касимов Одилжон Шодиевич** – д.м.н. ведущий научный сотрудник ТашНИИВС.
13. **Таджиев Мирхотам Мирхашимович** – д.м.н., доцент каф. неврологии, детск. неврологии, мед. генетики ТашПМИ.
14. **Облокулов Абдурашид Рахимович** – д.м.н., проф., зав. каф. инф. болезней и детских инф. болезней БухГМИ.
15. **Ибадова Гулнара Алиевна** – д.м.н., проф., каф. инф., дет. инф. и паразит. заб. центра развития проф. квалиф. мед. раб.
16. **Қосимов Илхомжон Асомович** – д.м.н., проф., каф. инф. болезней и детск. инф. заб., фтизиатрии и пульмонологии ТашПМИ.
17. **Ташмухамедова Шохиста Сабиловна** – д.б.н. профессор кафедры микробиологии и биотехнологии Национального университета РУз.
18. **Кахоров Болта Абдугафарович** – к.б.н., доц. кафедры физиологии человека и животных Национального университета РУз.
19. **Зияева Шахида Тулаевна** (ответственный секретарь). – к.м.н., доц. каф. фармакология, физиология ТашПМИ.
20. **Ражабов Гулом Хурсанович** - к.м.н., зав. лаб. института вакцин и сывороток РУз.

Зарубежные члены редколлегии:

21. **Хамидова Гулозод Махсутовна** – д.м.н., United RX. США. Штат Иллинойс.
22. **Кравченко Ирина Эдуардовна** – д.м.н., проф., каф. едры инф. болезней ФГБОУ ВО «Казанский ГМУ» МЗ РФ.

Ташкент – 2025

ҚАНДЛИ ДИАБЕТДА ЙИРИНГЛИ – НЕКРОТИК АСОРАТЛАРИНИ ДАВОЛАШНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Абдуллаев Сайфулло Абдуллаевич, Ибодуллоев Авазбек Зафарович

Самарқанд Давлат Тиббиёт Университети

sayfulloabdullayevich@gmail.com

Таянч сўзлар: қандли диабет, юмшоқ тўқима инфекциялари, йирингли-некротик фасциит.

XXI асрда ҳамон тўлиқ ечимини топмаган муҳим муаммолардан бири — бу қандли диабетнинг оғир асоратларини самарали даволаш масаласидир. Қандли диабетнинг энг жиддий асоратларидан бири — диабетик панжа синдроми бўлиб, унинг фонида ривожланадиган юмшоқ тўқималардаги яллиғланиш ҳолатлари 25 – 30% ни ташкил қилмоқда. Жаҳон Соғлиқни сақлаш Ташкилотининг маълумотларига кўра, қандли диабет касаллиги ногиронликка олиб келувчи сабаблар орасида биринчи, ўлим ҳолатлари бўйича эса учинчи ўринни эгаллайди. Шу сабабли XXI асрда қандли диабет “ноинфекцион пандемия” сифатида баҳоланмоқда. Қандли диабет фонида ривожланадиган юмшоқ тўқималардаги ва диабетик панжа синдроми доирасида учрайдиган йирингли-некротик асоратларни самарали даволаш муаммоси клиник хирургиянинг долзарб йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда.

Ушбу тадқиқотда Самарқанд шаҳар тиббиёт бирлашмасининг йирингли-септик бўлимида ҳамда Самарқанд Давлат Тиббиёт Универ-

ситетининг 1-сонли кўп тармоқли клиникасида даволанган, юмшоқ тўқималарнинг йирингли-некротик яллиғланишлари билан қандли диабетга чалинган 86 нафар беморнинг даволаш натижалари таҳлил қилинди.

Ишнинг мақсади. Қандли диабет билан юмшоқ тўқималардаги йирингли-некротик асоратларни маҳаллий ва хирургик даволашда комплекс технологияларни ишлаб чиқиш.

Ишнинг материали ва текшириш усуллари. Самарқанд шаҳар тиббиёт бирлашмасининг йирингли-септик бўлимида ва Самарқанд давлат тиббиёт университетининг 1-сонли кўп тармоқли клиникасида даволанган қандли диабет II типи билан, диабетик панжа синдроми ва юмшоқ тўқималардаги турли йирингли – некротик фасциитлар билан 86 нафар бемор устида кузатув олиб борилди. Улардан 46 нафар эркак, 40 нафар аёл. Беморларнинг ёши 28 ёшдан 76 ёшгача бўлиб, шундан 87% и 40–76 ёш оралиғида эканлиги аниқланди. Диабет анамнези 8 йилдан 21 йилгача бўлган. Қандли диабет асорати бошлангандан сўнг шифохонага мурожаат қи-

лиш муддати ўртача 33,3 кунни ташкил қилган. Кеч мурожаат қилиш сабаблари сифатида — беморларда диабет ҳақида етарли тушунчанинг мавжуд эмаслиги ва амбулаторияда тўлиқ текширувдан ўтмаганлиги аниқланган. Айрим беморлар оёқларнинг панжа соҳасида йирингли жараён бошланишига қарамай, узоқ вақт врачга мурожаат қилмаган.

Тахлил қилинган 86 бемордан 48 нафари қишлоқ аҳолиси, 38 нафари шаҳарда истиқомат қилувчилар бўлган. Кузатувлар давомида маълум бўлдики, беморлар орасида оёқларини иситиш мақсадида турли иссиқ сув тўлдирилган идишлар, электр иситгичлардан фойдаланганлар ва натижада терининг куйиш ҳолатлари ҳам кузатилган.

Қандли диабетнинг келиб чиқиш сабаблари сифатида: ирсий омиллар — 61%, тамаки чекиш — 24%, спиртли ичимлик истеъмоли — 23% (асосан эркаклар орасида) ва ортиқча вазн 48% ҳолатларда қайд этилган. Қандли диабет билан мурожаат қилганлар орасида қуйидаги йўлдош касалликлари аниқланди: юрак-қон томир тизимида — 77%, буйракларда — 54%, жигар, ўт йўллари ва сурункали обструктив бронхит — 57%. Қари ёшли беморларда 2–3 та қўшма касалликлар мавжуд бўлган.

Тўғри ташхис қўйиш мақсадида ультратавушли доплерография, рентгенография, МРТ, МСКТ, контрастли ангиография, қон ва сийдикнинг умумий ва биокимёвий таҳлиллари, иммунологик мониторинг ўтказилди. Барча ҳолатларда мутахассислар — эндокринолог, кардиолог, ангиолог,

анестезиологлар ва айрим ҳолатларда дерматолог билан маслаҳатлашув олиб борилди.

Беморлар икки гуруҳга ажратилиб ўрганилди:

- 1-гурӯҳ (42 нафар) бемор анъанавий овқатланиш, маҳаллий ва умумий хирургик даволаш усуллари қўлланилди.

- 2-гурӯҳ (44 нафар) беморларнинг ҳар кунги озиқланиш рационига ва даволаш тадбирларига биологик фаол қўшимчалар — лецитин, Омега-3, наҳанг балиғининг жигари мойи, В ва Е гуруҳ витаминлари қўшилди.

Ишнинг натижалари ва муҳокамаси. Охирги йилларда биз қандли диабет билан оғриган, юмшоқ тўқималарда йирингли-некротик асоратлар ривожланган беморларда нутрисептик усуллардан фойдаландик. Биологик фаол қўшимчаларни ҳар кунги рационга киритиш муҳим деб ҳисоблаймиз. Улар қаторига лецитин, ярим туйинмаган ёғ кислоталари, В ва Е витаминлари киради.

Қандли диабет билан йумшоқ тўқималардаги йирингли — некротик фасциитлар асоратларини хирургик даволашда биз қуйидаги тамойилларга асосландик:

1. Флегмона ва абсцессларни ўз вақтида радикал усулда очиш.
2. Некрозга учраган тўқималарни — некрэктомия қилиш.
3. Ярани адекват ҳолда санация қилиш ва дренажлаш (абдовлаш).

Биз амалиётда узун ва кенг кесмалар орқали флегмона ва абсцессларни очиб, тўлиқ санация қилдик, ўлган тўқималарни радикал равишда олиб ташладик. Ахволи оғир беморларда

аввал енгиллаштирувчи кесмалар қилиб, кейин тўлиқ радикал операция ўтказилди.

Айрим беморларда диабетик панжа синдроми ва септик ҳолат сабабли умумий наркозни кўтаролмаслиги аниқланганда, маҳаллий ва спинал анестезия остида бир лаҳзали ампутация (болдирнинг пастки учлигидан) амалга оширилди. Кейинчалик бемор ҳолати барқарорлашгач, ампутация сатҳи белгиланиб, радикал операция бажарилди.

Иккинчи гуруҳ (янги технологиялар асосида даволанган 44 бемор) да яраларнинг тозаланиши анъанавий гуруҳга нисбатан 7–8 кун эртароқ кузатилди. Яраларга чок қўйиш ҳам шунга мос равишда эртароқ қўйилди ва шифохонада даволаниш муддати 7–8 кунга қисқарди.

Қандли диабет билан боғлиқ йирингли-некротик асоратлар кўпинча сепсисга олиб келади. Бу интоксикация фонида организмда оқсил, ёғ, углевод алмашинувининг бузилиши ва озиқа моддаларда нутриентлар

етишмовчилиги сабабли иммун ҳимоясининг сусайиши билан боғлиқ. Шу сабабли энтерал ва парэнтерал озиқлантириш муҳим ҳисобланади. Биз амалиётда йирингли – некротик асоратлар билан сепсис кузатилган беморларда “Нутрифлекс” инфузион эритмасини қўллаб яхши натижаларга эришдик.

Клиник тасвир. Бемор Ш., 54 ёшда. Анамнезда: думғоза соҳасида чипқон чиққан, ўзи турли мойлар суртиб даволаган. Клиникага кеч мурожаат қилган. Ташхис: думғоза соҳасида карбункул. Асорати: ўнг елка, ўнг сон ва чап бўлди́р флегмонаси. Некротик фасциит. Сепсис.

Юлдош касалликлар: Қандли диабет, 2-тур; юрак ишемик касаллиги; синусли тахикардия.

Махсус тайёргарликдан сўнг операция қилинди: ўнг елка, ўнг сон ва чап болдирдаги флегмоналар очилди, некрэктомия қилинди.

Операцияданкейин4мартабосқич-ма-босқич некрэктомия амалга оширилди. Яралар тўлиқ некротик тўқималардан тозалангач, чоклар қўйилди.



1-расм. А. Беморнинг ўнг елка юқориғи учлиғи инъекциядан кейинги флегмонаси. Қандли диабет II тип. Операциягача бўлган кўриниши



2-расм. Б. Флегмонани очилиши ва ундан кейинги холати

Хулоса: Қандли диабетда юмшоқ тўқималардаги йирингли-некротик асоратларни даволашда уларни ўз вақтида аниқлаш, ҳар кунлик овқатланиш рационига биологик фаол нутрицептикларни қўшиш ҳамда ўтказилган маҳаллий ва комплекс радикал хирургик даволаш усуллари энг оптимал усул ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Абдуллаев С. А., Джалолов Д. А. Особенности течения болезни Фурнье при сахарном диабете // Наука в современном мире: приоритеты развития. - 2020. - № 1. - С. 9-11.
2. Абдуллаев С. А. и др. Проблема диагностики и лечения сепсиса при сахарном диабете // вестник врача - С. 6.
- Пасхалова Ю. С. 3-й Международный научно-практический конгресс» Сахарный диабет и хирургические инфекции» Москва, 14-16 ноября 2017 года // Раны и раневые инфекции. - 2017. - Т. 4. - № 4. - С. 6-11.
- Юлдашев Ф., Абдуллаев С., Курбанов Э., Джалолов Д. Кандли диабетда юмшоқ туқималарнинг йирингли некротик яллиғланишининг сепсис асоратини даволаш муаммолари // Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации.-2020. - №57. -С. 445-447.
- S. Abdullaev S., Akhmedov A. T. A., Djalolov D. Problems of surgical tactics for the treatment of diabetic foot syndrome/International Journal of Advanced Science and Technology. - 2020. - Т. 29. - № 05. - С. 1836-1838.
6. Abdullaev Sayfulla Abdullaevich, Babajanov Axmadjan Sultanbayevich, Kurbanov Erkin Yusufovich, Toirov Abduxomid Suvonkulovich, Abdullaeva Lola Sayfullaevna, Djalolov Davlatshokh Abduvokhidovich, Problems of Sepsis Diagnostic and Treatment in Mellitus, American Journal of Medicine and Medical Sciences, Vol. 10 No. 3, 2020, pp. 175-178. doi: 10.5923/j.ajmms.20201003.09.

РЕЗЮМЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕЧЕНИЯ ГНОЙНО-НЕКРОТИЧЕСКИХ ОСЛОЖНЕНИЙ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ

Абдуллаев Сайфулла Абдуллаевич, Ибодуллоев Авазбек Зафарович

Самаркандский государственный медицинский университет

sayfulloabdullayevich@gmail.com

Ключевые слова: сахарный диабет, инфекции мягких тканей, гнойно-некротический фасциит.

Одним из самых серьезных осложнений сахарного диабета является синдром диабетической стопы, при котором воспалительные процессы в мягких тканях составляют 25–30%.

В данном исследовании проанализированы результаты лечения 86 больных с сахарным диабетом и гнойно-некротическими воспалениями мягких тканей, проходивших лечение в гнойно-септическом отделении медицинского объединения города Самарканда и в первой многопрофильной клинике Самаркандского государственного медицинского университета.

SUMMARY MAIN CHARACTERISTICS OF THE TREATMENT OF PURULENT- NECROTIC COMPLICATIONS IN DIABETES MELLITUS

Abdullaev Sayfulla Abdullayevich, Ibodulloev Avazbek Zafarovich

Samarkand State Medical University

sayfulloabdullayevich@gmail.com

Keywords: diabetes mellitus, soft tissue infections, purulent-necrotic fasciitis.

One of the most serious complications of diabetes mellitus is diabetic foot syndrome, with inflammatory conditions of the soft tissues developing in its background, accounting for 25–30%.

The problem of effectively treating purulent-necrotic complications in soft tissues and diabetic foot syndrome remains one of the urgent areas of clinical surgery. This study analyzed the treatment outcomes of 86 patients with diabetes mellitus suffering from purulent-necrotic inflammations of soft tissues treated in the purulent-septic department of the Samarkand city medical association and the 1st multidisciplinary clinic of Samarkand State Medical University.

YANGI SUPRAMOLEKULAR KOMPLEKS BIRIKMANING GIPOLIPIDEMIK FAOLLIGINI ANIQLASH

Abdullayeva Mashhura Ikromjonovna,
Inoyatova Feruza Xidoyatovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi
mashhura.ikromjonovna@mail.ru

Kalit soʻzlar: alkogolli gepatoz, noalkogol yogʻli gepatoz, triglitserid, xolesterin, supramolekulyar kompleks birikma.

Hozirgi kunda keng tarqalib borayotgan va oʻlim xavfi yuqori boʻlgan yurak qon tomir tiziimi kasalliklari giperlipidemiya rivojlanishi tufayli xavfli kasalliklar sanaladi. Shu sababdan, gipolipidemik faollikka ega boʻlgan yangi dori vositalarini yaratish muhim sanaladi. Alkogolli (40% li etil spirit 10 kun mobaynida) va noalkogol yogʻli gepatoz modelida (yuqori yogʻli parhez, suv oʻrniga 10% glyukoza-fruktoza eritmasi 20 hafta mobaynida) kalamushlar qon zardobida xolesterin hamda triglitserid koʻrsatkichlariga yangi mahalliy oʻsimlikdan olingan glitsirizin kislotaning monokaliyli tuzini gall kislota bilan hosil qilgan supramolekulyar kompleks birikmaning taʼsiri oʻrganildi. Tadqiqot natijalariga koʻra, GKMK:Gall kompleksi oʻtkir yogʻli gepatoz modelida yuqori gipolipidemik faollikni koʻrsatdi, qon zardobida xolesterin va triglitserid miqdorini kamaytirdi hamda uning 100 mg/kg miqdori eng samarali taʼsir etdi va keying tadqiqotlar uchun faol miqdor sifatida tanlab olindi. Keyingi bosqichda noalkogol yogʻli gepatoz modelida GKMK: Gall supramolekulyar kompleks

birikmasi giperxolesterinemiya va gipertriglitseridemiyaning samarali kamaytirdi.

Kirish. Hozirgi kunda dunyo boʻylab keng tarqalib borayotgan ateroskleroz, yogʻli gepatoz, metabolik sindrom va boshqalar giperlipidemiya rivojlanishi tufayli xavfli kasalliklar sanaladi. Gipolipidemik faollikka ega boʻlgan yangi dori vositalarini yaratish muhim sanaladi.

Bu borada glitsirizin kislotasi antiaterosklerotik aktivlikka ega boʻlib, ushbu faollikni oʻt kislotasi sintezini kuchaytirish va fosfolipid A2 aktivligini ingibirlash orqali namoyon qiladi. Glitsirizin kislotaning antiaterosklerotik faolligi bilan birga gipolipidemik faolligi ham maʼlum [1].

Glitsirizin kislotasi Glycyrrhiza glabra (qizilmiya) ildizidagi shirin taʼmdagi asosiy moddasi hisoblanadi. [2]. Noalkogol yogʻli gepatozda GK ning antisteatoz taʼsiri stearyl-KoA desaturazasi va yogʻ kislotalar sintazasi faolligini pasaytirish, lipidlarning de novo sintezi elementlarini ingibirlash xususiyatlari bilan bogʻlanadi [3].

Materiallar va tadqiqot usullari.

Giperlipidemiya alkogolli va noalkogol yog'li gepatoz (NAJYG) modellarida chaqirildi. Etanolning 40% li eritmasidan 10 ml/kg miqdorda oshqozonga 10 kun mobaynida kiritish orqali o'tkir gepatoz chaqirildi [4]. Bunda o'tkir gepatozga chalingan (davolanmagan) kalamushlarga GKMKT:GallK kompleksi bilan 50, 100 va 150 mg/kg miqdorda berildi. Hayvonlardan tahlil uchun qon tajribaning 14-kunida olindi va lipid ko'rsatkichlariga ta'siri biokimyoviy usullar orqali baholandi.

NAJYGni modellashtirish uchun 20 hafta mobaynida yuqori yog'li (eritilgan mol yog'i) kombinatsiyalangan (suv o'rniga 10% fruktoza, 10% glyukoza) parhez (YYP) qo'llanildi. Taklif qilinayotgan GKMKT:GallK supramolekulyar kompleksi 4 hafta mobaynida har kuni 100 mg/kg miqdorda berildi. Tadqiqotning tegishli kunlarida kalamushlar harorati 0°-+2°C sovuq xonada dekapitatsiya qilindi va hayvonlarning qoni yig'ildi. So'ng yig'ib olingan qon 30 daqiqa mobaynida +4°C haroratda qoldirildi, 3000 aylanma/daqiqa tezlikda sentrifuga qilindi va qon zardobi yig'ib olindi. Qon zardobida xolesterin, triglitseridlar miqdori aniqlandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalariga ko'ra, GKMKT:GallK kompleksining tadqiq qilingan 50, 100 va 150 mg/kg miqdorlari kiritilgan hayvonlarda deyarli barcha lipid ko'rsatkichlari (triglitserid, xolesterin) nazorat guruhidan statistik ahamiyatli farq qilib, natijalar intakt guruhi kalamushlariga yaqin bo'ldi va ular orasida statistik ishonarli farqlar kuzatilmadi (1-rasm). Tajribada GKMKT:GallK kompleksi o'tkir yog'li gepatoz modelida yuqori biologik faolli-

kni ko'rsatdi va uning 100 mg/kg miqdori eng samarali ta'sir etdi hamda surunkali NAJYG modelida optimal davolovchi faol miqdor sifatida tanlab olindi.


O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, GKMKT:GallK supramolekulyar kompleks birikmasining 50, 100 va 150 mg/kg dozalarida qo'llanilishi alkogolli yog'li gepatoz modeli induksiya qilingan kalamushlarda lipid metabolizmi ko'rsatkichlari, ya'ni triglitserid va umumiy xolesterin darajasini normalashtirishda samarali ta'sir ko'rsatdi. Nazorat guruhida triglitserid miqdori yuqori bo'lishi bilan patologik giperlipidemiya aks ettiradi. GKMKT:GallK kompleksining 50 mg/kg dozasi triglitserid darajasini nazorat guruhiga nisbatan 26,7% ga; 100 mg/kg dozasi esa triglitserid darajasini to'liq normallashtirib, nazoratga nisbatan 33,3% ga; 150 mg/kg dozada esa bu ko'rsatkich 29,6% ga kamaydi.

Umumiy xolesterin ko'rsatkichlari ham nazorat guruhida yuqori ekanini kuzatildi. Kompleks qo'llangan guruhlarda ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada pasaydi: 50 mg/kg dozada xolesterin nazoratga nisbatan 34,2%; 100 mg/kg dozada 43,5% kamayish; 150 mg/kg dozada esa 40,9% kamaydi va ushbu qiymatlar intakt guruh ko'rsatkichlariga statistik jihatdan yaqinlashdi. Kuzatilgan bu natijalar GKMKT:GallK kompleksining alkogol bilan induksiyalangan o'tkir yog'li gepatoz modeli sharoitida triglitserid va umumiy xolesterin miqdorini sezilarli darajada kamaytirish, ya'ni lipidlar metabolizmini samarali tartibga solish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, 100 mg/kg dozasi eng yaqqol gipolipidemik faollik ko'rsatib,


barcha asosiy lipid ko'rsatkichlarini deyarli sog'lom darajaga qaytargan bo'lib, mazkur dozani surunkali NAJYG modeli uchun optimal terapevtik miqdor sifatida tanlashga asos bo'lgan.

Noalkogol jigar yog'li gepatozida ham dislipidemik o'zgarishlar haqida xulosa chiqarish uchun qon zardobida xolesterin va triglitserid miqdorining o'zgarishini o'rgandik. Jigar yog'li gepatozida jigar shikastlanishining asosi bo'lib, giperxolesterinimiya va gipertriglitsiridemiya rivojlanishi bilan kuchuvchi lipid almashinuvining chuqur buzilishi bo'lib hisoblanadi. Noalkogol

yog'li gepatoz modellashtirilgan kalamushlarda xolesterin ko'rsatkichining intakt kalamushlarga nisbatan ortishi aniqlandi. Jumladan, yog'li gepatoz modellashtirilgan kalamushlarning qon plazmasida xolesterin ko'rsatkichlari intakt guruh ko'rsatkichlariga nisbatan 1,65 marotaba ortishi aniqlandi. Lipidlar almashinuvidagi bunday o'zgarishlarning sababi, xolesterin eterifikatsiyasi jarayonining buzilishi va natijada lipoproteid birliklarda umumiy xolesterin taqsimlanishining hamda organizmdan xolesterinning chiqib ketishining buzilishidir (2-rasm).



1-rasm. Alkogolli yog'li gepatoz modelida lipid ko'rsatkichlariga supramolekulyar kompleks birikmaning ta'siri



2-rasm. Noalkogol yog'li gepatoz modelida yangi supramolekulyar kompleks birikmaning lipid ko'rsatkichlariga ta'siri

Jigar xolesterin sintezini va lipoproteinlar metabolizmini amalga oshiruvchi a'zodir. Shuning uchun, jigarining yog' bosishida xolesterin sintezi va lipoproteinlar sintezida nomutanosiblik kuzatiladi. Bu jarayonda GMG-KoA reduktaza fermentining faollashuvi ham giperxolesterinemiyaga sabab bo'ladi [5; 6]. Ma'lumki, xolesterin barcha hujayralar biologik membranasi asosiy komponentidir. Xolesterin miqdorining o'zgarishi o'z navbatida aterosklerozga sabab bo'lishi mumkin.

Triglitsridlar miqdori yog'li gepatoz modellashtirilgan guruhlarda 2,3 marotaba oshdi (2-rasm). Bu holat yuqori yog'li parhez natijasida jigar tomonidan yog'larning ortiqcha sintezi va oksidlanish jarayonlarining buzilishi bilan bog'liq. YG bilan bog'liq bo'lgan metabolik buzilishlarda triglitsridlarning ortiqcha to'planishi kuzatiladi, bu esa insulin rezistentligi, lipogenez va jigar hujayralarining yallig'lanishiga olib keladi [7].

Shuningdek, yog'li gepatozning rivojlanishida SREBP-1 va SREBP-2 (Sterol reguliyator elementini bog'lovchi oqsil) transkripsion faktorlarining haddan tashqari faollashishi triglitsrid va xolesterin sintezini kuchaytiradi [8]. Triglitsridlar miqdori yog'li gepatoz modellashtirilgan guruhlarda 2,3 marotaba oshgan bo'lsa, Karsil va GKMKT:GallK supramolekulyar kompleksi bilan davolangan guruhlarda nazorat guruhiga nisbatan mos ravishda 34,24% va 41,1% pasaydi.

Xolesterinning miqdori nazorat guruhida sezilarli oshgan bo'lsa, Karsil va GKMKT:GallK supramolekulyar kompleksi bilan davolangan guruhda nazorat

guruhiga nisbatan mos ravishda 23,19% va 29,9% kamayishi aniqlandi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar GKMKT:GallK supramolekulyar kompleksini gipolipidemik preparat sifatida, xususan yog'li gepatoz kasalliklarini davolashda keng qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi. Taklif qilinayotgan GKMKT:Gall kislotasi kompleks birikmasi giperxolesterinemiya va gipertriglitsridemiyani kamaytirdi.

Xulosa. GKMKT:GallK supramolekulyar kompleks birikmasi alkogolli va noalkogol yog'li gepatoz sharoitida gipolipidemik ta'sir qilib, qon zardobida triglitsrid va umumiy xolesterin miqdorini sezilarli darajada kamaytirdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Диковский А.В., Закирова С.А. Фармацевтическая композиция для лечения гиперлипидемии. Ru Патент. 2019. Бюл. № 10.
2. Abo El-Magd N.F. Glycyrrhizin ameliorates high fat diet-induced obesity in rats by activating NrF2 pathway // Life Sci. – 2018. – Vol. 193. – P.159–170.
3. Wang C. Protective effects of glycyrrhizic acid from edible botanical glycyrrhiza glabra against non-alcoholic steatohepatitis in mice // Food Funct. – 2016. – Vol. 7 (9). – P. 3716–3723.
4. Владислав О.Д. Эффективность комплекса лекарственных препаратов при экспериментальной жировой дистрофии печени белых крыс. Ветеринарный врач. 2022. 3. -С. 41-45. DOI 10.33632/1998-698X.2021_41_45.
5. Gao XR, Chen Z, Fang K, Xu JX, Ge JF. Protective effect of quercetin against the metabolic dysfunction of glucose and lipids and its associated learning and

memory impairments in NAFLD rats. *Lipids Health Dis.* 2021 Nov 17;20(1):164. doi: 10.1186/s12944-021-01590-x. PMID: 34789244; PMCID: PMC8596093.

6. А.П.Трашков., Т.В. Б р у с ., А.Г.Васильев., М.Р. Артеменко, В.А. Печатникова, М.А. Гуменная. Биохимический профиль крыс с неалкогольной жировой болезнью печени различной степени тяжести и его коррекция препаратом ремаксол // Педиатр. – 2017. – Т. 8. – № 4. – С. 78–85. doi: 10.17816/PED8478-85.

7. James M. Eng and Jennifer L.

Estall. Diet-Induced Models of Non-Alcoholic Fatty Liver Disease: Food for Thought on Sugar, Fat, and Cholesterol // *Cells*. -2021. –V.10. -1805. <https://doi.org/10.3390/cells10071805>.

8. Fukuda A., Sasao M., Asakawa E., Narita S., Hisano M., Suruga K., Ichimura M., Tsuneyama K., Tanaka K., Omagari K. Dietary fat, cholesterol, and cholic acid affect the histopathologic severity of nonalcoholic steatohepatitis in Sprague-Dawley rats // *Pathol. Res. Pract.* -2019. –V.215. –P.152599. <https://doi.org/10.1016/j.prp.2019.152599>.

SUMMARY

DETERMINATION OF THE HYPOLIPIDEMIC ACTIVITY OF A NEW SUPRAMOLECULAR COMPLEX COMPOUND

Abdullayeva Mashhura Ikromjonovna,
Inoyatova Feruza Khidoyatovna

Tashkent Medical Academy

mashhura.ikromjonovna@mail.ru

Keywords: alcoholic hepatitis, non-alcoholic fatty hepatitis, triglyceride, cholesterol, supramolecular complex compound.

Currently, cardiovascular diseases, which are becoming increasingly widespread and have a high mortality risk, are considered dangerous due to the development of hyperlipidemia. Therefore, the creation of new drugs with hypolipidemic activity is deemed important. In models of alcoholic (40% ethyl alcohol for 10 days) and non-alcoholic fatty liver disease (high-fat diet, 10% glucose-fructose solution instead of water for 20 weeks), the effect of a supramolecular complex compound on cholesterol and triglyceride levels in rat blood serum was studied. This compound was formed by the monopotassium

salt of glycyrrhizic acid, obtained from a new local plant, with gallic acid. According to the research results, the MPSGA:Gall complex demonstrated high hypolipidemic activity in the model of acute fatty liver disease, reducing the levels of cholesterol and triglycerides in blood serum. Its dose of 100 mg/kg showed the most effective results and was selected as the active dose for further studies. In the subsequent stage, using a model of non-alcoholic fatty liver disease, the supramolecular complex compound MPSGA:Gall effectively reduced hypercholesterolemia and hypertriglyceridemia.

РЕЗЮМЕ

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ГИПОЛИПИДЕМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НОВОГО СУПРАМОЛЕКУЛЯРНОГО КОМПЛЕКСНОГО СОЕДИНЕНИЯ

Абдуллаева Машхура Икромжоновна
Иноятова Феруза Хидоятовна

Ташкентская медицинская академия
mashhura.ikromjonovna@mail.ru

Ключевые слова: *алкогольный гепатоз, неалкогольный жировой гепатоз, триглицериды, холестерин, супрамолекулярное комплексное соединение.*

Сердечно-сосудистые заболевания, которые в настоящее время становятся все более распространенными и имеют высокий риск летального исхода, считаются опасными заболеваниями из-за развития гиперлипидемии. В связи с этим создание новых препаратов с гипOLIПИДЕМИЧЕСКОЙ активностью является важной задачей. Было изучено влияние супрамолекулярного комплексного соединения монокальевой соли глицирриновой кислоты, полученной из нового местного растения, с галловой кислотой на показатели холестерина и триглицеридов в сыворотке крови крыс на моделях алкогольного (40% этиловый спирт в течение 10 дней) и неалкогольного жирового гепатоза (высокожировая

диета, 10% раствор глюкозы-фруктозы вместо воды в течение 20 недель). Согласно результатам исследования, комплекс ГКМКТ:Галл продемонстрировал высокую гипOLIПИДЕМИЧЕСКУЮ активность на модели острого жирового гепатоза, снижая уровень холестерина и триглицеридов в сыворотке крови. Наиболее эффективной оказалась доза 100 мг/кг, которая была выбрана в качестве активной дозы для дальнейших исследований. На следующем этапе супрамолекулярное комплексное соединение ГКМКТ:Желчь на модели неалкогольного жирового гепатоза эффективно снижало гиперхолестеринемию и гипертриглицеридемию.

YDK 618.14-089.888:616.441-092:612.017

ENDOMETRIYGA TROMBOTSITLARGA BOY PLAZMA KIRITISH TEXNIKASINI OPTIMALLASHTIRISH: DOZALASH VA QABUL QILISH REJIMINING ENDOMETRIYNING LOKAL IMMUN JAVOB VA KLINIK NATIJALARGA TA'SIRI

Abdullayeva Nilufar Adxamjon qizi, Yuldasheva Suraya Zaripovna

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

abdullayevanilufar97@gmail.com

Kalit so'zlar: TBP(trombotsitlarga boy plazma), endometriyal retseptivlik, yupqa endometriy, angiogenez, proliferatsiya, bepushtlik, YPT.

Trombotsitlarga boy plazma (TBP) yordamchi reproduktiv texnologiyada (YRT), ayniqsa, endometriyni qabul qilish qobiliyatini yani endometrial retseptivlik oshirishda istiqbolli terapiya hisoblanadi. [1,2,3], Ayollarda homiladorlik muvaffaqiyatli kechishi uchun endometriy to'qimasining embrion implantatsiyasiga tayyor holati, ya'ni retseptivlik holatiga erishishi muhimdir [4], Endometriy retseptivligi — bu murakkab biologik holat bo'lib, u immun muvozanat, gormonlar ta'siri, hujayra proliferatsiyasi va molekulyar signalizatsiya tizimlari bilan boshqariladi [4,10], Retseptivlik odatda ovulyatsiyadan keyingi 19–23 kunlarda yuzaga keladi va bu davr “implantatsiya oynasi” deb nomlanadi. Ushbu davrda uterin natural killer (uNK) hujayralar, T-regulyator hujayralar (Treg), makrofaglar va turli sitokinlar (IL-1; IL-6; LIF; TNF- α ; TGF- β) ishtirokida immunologik moslashuv jarayoni amalga oshadi. [10], Immun disbalans, ayniqsa surunkali endometrit holatlari, endometriy retseptivligining buzilishiga va implantatsiyaning muvaffaqiyat-

sizligiga olib keladi [4, 8], Zamonaviy tadqiqotlar ushbu holatni davolashda trombotsitlarga boy plazma (TBP) terapiyasining samaradorligini ko'rsatmoqda [6, 7], TBP tarkibida mavjud bo'lgan o'sish omillari (TGF- β 1; VEGF; PDGF; CTGF) endometriy to'qimalarining yangilanishi, hujayra proliferatsiyasi va kollagen sintezini kuchaytiradi. [6, 8, 9], Ayniqsa, TGF- β 1 signalizatsiyasi orqali Smad2/3 yo'li faollashib, kollagen ishlab chiqarish va to'qimalarning tiklanishini rag'batlantiradi [11], Shuningdek, TBP endometriyal ildiz hujayralarini faollashtirib, ularni shikastlangan joylarga jalb etadi, bu esa endometriyning o'zini tiklash qobiliyatini oshiradi [5, 12], Bu hujayralar differensiallanish orqali yangi to'qima hosil qilishi, chandiqlarning kamayishiga va implantatsiyaga tayyor muhit shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, TBP terapiyasi nafaqat immuno-modulyator, balki regenerativ va molekulyar ta'sir mexanizmlari orqali ham reproduktiv salomatlikda muhim o'rin tutadi. [6, 9], Bu maqolada TBP terapiyasining endometriy retseptivligi, im-

mun javob, hujayra darajasidagi tiklanish va ildiz hujayralar faollashuvi orqali qanday klinik foyda berishi keng tahlil qilinadi.

Maqsad: TBP terapiyasining hujayra proliferatsiyasi, angiogenez, yallig'lanishga qarshi va mahalliy immun javoblari orqali endometriyal reseptivlikni oshirishdagi ro'lini baxolash.

Material va metod: Ushbu maqolani tayyorlashda 2018–2024 yillar oralig'ida nashr etilgan ilmiy manbalar tahlil qilindi. Maqola uchun asosiy ma'lumotlar PubMed, ACOG va Dissercat.com kabi ishonchli ilmiy bazalaridan olindi. Tadqiqotlar tanlab olinayotganda quyidagi mezonlar inobatga olindi:

Tadqiqot turi: meta-tahlillar, randomizatsiyalangan klinik sinovlar (RCT), sistematik tahlillar va eksperimental ishlanmalar;

Nashr sanasi: 2018-yildan 2024-yilgacha;

Mavzuga aloqadorlik: TBP (PRP) ning endometriy reseptivlik, immun javob va klinik natijalarga ta'siri;

Tillar: asosan ingliz va rus tillarida chop etilgan maqolalar.

Adabiyotlar tanlovida ayollarda takroriy implantatsiya muvaffaqiyatsizliklari, endometriy holati, PRP terapiyasining mexanizmlari, dozalash strategiyalari va lokal immun modulyatsiyasi bilan bog'liq ishlar ustuvor bo'ldi.

Tanlab olingan manbalar kontentiga ko'ra tizimli tahlil qilindi, umumiy ilmiy yondashuv asosida guruhlashtirilib, natijalar bayon etildi.

Natija va taxlillar. Endometriy reseptivligi — bu endometriyning blastotsist (embrion) ni qabul qilish va uni implantatsiya qilishga tayyor bo'lgan

fiziologik holatidir. Bu davr “implantatsiya oynasi” deb ataladi va odatda ovulyatsiyadan keyingi 19–23 kunlar oralig'ida kuzatiladi. [4], Retseptivlikni quyidagilar belgilaydi: Sitokinlar va kimokinlar balansida o'zgarishlar, endometriyal hujayralarning molekulyar ekspressiyasi (LIF, integrinlar, HOXA10, HOXA11), progesteron retseptorlarining faolligi, mahalliy immun hujayralarning (NK, makrofaglar) holati. [5,6], Endometriy immun tizimi mahalliy (lokal) immune hujayralar ya'ni: NK-hujayralar (natural killer), makrofaglar, dendritik hujayralar, adaptiv immun hujayralar: T-limfotsitlar, B-limfotsitlar va Sitokinlar, kemokinlar va o'sish omillari (IL-1; IL-6; LIF; TNF- α ; TGF- β ; VEGF tashkil topgan. [7], uNK hujayralar (uterine natural killer) – embrion implantatsiyasiga yordam beradi [8], T-regulator hujayralar (Treg) – onaning immun javobini bostirib, embrionni xorijiy antigen sifatida rad etilishidan saqlaydi. [9], Makrofaglar to'qima regeneratsiyasi va immun toleransni ta'minlaydi. [10], T-limfotsitlar (CD4+, CD8+) Th1/Th2 balans orqali yallig'lanish va immun javobni muvozanatlaydi. [11], B-limfotsitlar kam miqdorda bo'ladi, ammo surunkali endometrit holatida ortadi. [12], Sitokinlar (IL-6; IL-10; TNF- α ; TGF- β) immun javobni kuchaytiradi yoki susytiradi [13], Implantatsiya jarayoni - bu yarim yallig'lanishli immun javob bilan birgalikda kechadi. Immun tizim embrionni “begona tanachadir” deb tanisa ham, ona organizmi uni rad qilmasligi kerak. Bu holat immun tolerans deb ataladi. [14], Muhim bog'liqlar: uNK hujayralar TBP, estradiol va progesteron ta'sirida ko'payadi bu esa angiogenez va silliq

implantatsiyaga yordam beradi. [15], T-regulatory hujayralar (Tregs) implantatsiyani qo'llab-quvvatlaydi, autoimmun hujumlarni kamaytiradi. [9, 16], Disbalans holatida (masalan, surunkali endometrit) retseptivlik buziladi, implantatsiya muvaffaqiyatsiz bo'ladi. [12, 17], Implantatsiya vaqtida immun javob yarim yallig'lanishli bo'lib, uNK va T-reg hujayralar tomonidan muvofiqlashtiriladi. Disbalans bo'lsa, homiladorlik davom etmaydi. [14, 18], Repetitiv implantatsiya muvaffaqiyatsizligi bilan og'rigan ayollarda CD56+ NK hujayralar va Th1 sitokinlar soni ortgan. [19], Immuoterapiya va TBP asosida lokal immun tizimni modulyatsiya qilish — zamonaviy muolajalardan biridir. [20], TBP tarkibidagi interleukinlar va o'sish omillari endometriy immun muvozanatini tiklashga yordam beradi. TBP uNK va Treg hujayralar sonini oshiradi bu orqali retseptivlikni yaxshilaydi. Shuningdek, progesteron terapiyasi immun toleransni kuchaytiradi. [15, 16, 21],

Trombotsitlarga boy plazma endometriyning tiklanishi va regeneratsiyasida muhim rol o'ynaydi. Turli yondashuvlar TBPning retinol metabolizmi va hujayra tashqarisidagi matriks (ECM) retseptorlari bilan o'zaro ta'sir orqali endometriyning yangilanishini rag'batlantirishini ko'rsatadi [21], Ayniqsa, TBP yordamida regeneratsiyada ishtirok etuvchi melanotransferrin (MELTF) geni yuqori darajada faollashgan [22], In vitro tadqiqotlar TBP inson endometriyal stromal hujayralarida (HESC) hujayra proliferatsiyasi, to'qima regeneratsiyasi, yallig'lanishga qarshi va antimikrobiyal javoblarni faollashtiruvchi genlarning ekspressiyasini oshirishini ko'rsatdi. Shu

bilan birga, fosfoinositid 3-kinaza signalizatsiyasini inhibitsiya qilish orqali TBP infeksiyaga aloqador genlarning ifodasini va desidualizatsiyalangan hujayralarda proliferatsiyani cheklaydi. Bu esa TBPning immunomodulyator xususiyatlarini ham namoyon etadi. Sekretor fazada TBP immunologik tolerantlikni kuchaytirishi, proliferativ bosqichda esa endometriy qalinligini oshirishi mumkin. TBP terapiyasi molekulyar va hujayra darajasida murakkab mexanizmlar orqali reproduktiv natijalarni yaxshilaydi.

TBPda Trombotsitlarning Faollashtirilishi. TBP — bu turli usullar (santrifugatsiya, trombin, fibrin yoki CaCl_2 qo'llanilishi) orqali faollashtirilgan trombotsitlardan iborat plazma bo'lib, unda bioaktiv o'sish omillarining (growth factors) ajralishi boshlanadi. Bu faollashuv hujayra mitoz, angiogenez va to'qimalarning tiklanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi [23], Faollashtirilgan TBP — faollashtirilmagan TBPga nisbatan klinik samaradorlikda ustunlikka ega [24],

O'sish Omillari Ta'siri. Faollashtirilgan trombotsitlar tarkibidan VEGF, PDGF va TGF- β kabi o'sish omillari ajralib chiqadi [25], VEGF angiogenezni kuchaytirib, to'qimalarning kislorod va ozuqa bilan ta'minlanishini yaxshilaydi. PDGF esa hujayra proliferatsiyasi va ECM sintezida muhim rol o'ynaydi. TGF- β immun javobni modulyatsiya qilish, hujayra o'sishi va differensiasiyasi kabi ko'plab jarayonlarda ishtirok etadi. Faollashtirilgan trombotsitlar orqali hosil bo'lgan ushbu o'sish elementlarining aralash ta'siri to'qimalarning tiklanishini tezlashtiradi, hujayra bo'linishini

oshiradi va to'qimalarning yangilanishi-rni rag'batlantiradi. Ushbu o'sish omillar-ini chiqarish bilan bog'liq strategiyalarni tushunish oftalmologiya, ortopediya, jarohatni tiklash va boshqa davolash tadbirlarida turli xil tibbiy maqsadlarda foydalanish uchun TBP ning regenera-tiv qobiliyatini optimallashtirish uchun juda muhimdir. [26],

Angiogenezni stimulyatsiya qil-ish. Faollashtirilgan trombositlar yor-damida hosil bo'lgan o'sish omillari angiogenezni rag'batlantirish va yan-gi qon tomirlarini yaxshilashda mu-him rol o'ynaydi. Bu o'sish elementlari yangi qon tomirlarining shakllanishini rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega, bu esa to'qimalarni, shu jumladan endometriyni kislorod va vitaminlar bi-lan ta'minlash, tiklash va regeneratsiya jarayonlarini osonlashtirish uchun juda muhimdir. [27, 28], Ko'p sonli proan-giogen moddalar, masalan, muhim fi-broblast o'sish omili (bFGF), VEGF va turli xil angiogenez stimulyatorlari trombositlar orqali chiqariladi. Bu mol-ekulalarning har biri angiogen kaskadni boshlaydi va boshqaradi. Muvozanat-li reaksiya trombositlar ichida pro- va antiangiogenik oqsillarni ajratish orqali ta'minlanadi, bu esa hatto haddan tash-qari tomir shakllanishi yoki aberrant vaskulyarizatsiyani cheklashda ham an-giogenezni tartibga solinadigan rag'bat-lantirish imkonini beradi. [29], Trombot-sitlar angiogenezni rag'batlantiradigan mexanizmlarni tushunish va to'qima-larni tiklash, o'smalarining rivojlani-shi va yaralarni tiklashni o'z ichiga ol-gan bir qancha fiziologik jarayonlarda pro-antangiogenik moddalar nisbatini boshqarish juda muhimdir. Faollashtiril-

gan trombositlar angiogenezni tartib-ga solishda muhim ahamiyatga ega, bu o'sish elementlarini muvofiqlashtirilgan ishga tushirish orqali isbotlangan. [30], Bu yangi qon tomirlari ishlab chiqarish orqali to'qimalarning yangilanishi va ta'mirlanishini rag'batlantirishda trom-bositlarning ahamiyatini ta'kidlaydi .

Hujayra proliferatsiyasi va kollagen sintezi. O'sish omili bilan faollashtirilgan signalizatsiya yo'llari hujayra proliferat-siyasini kuchaytirish orqali to'qimalarni tiklashda hamkorlik qiluvchi hujayralar xilma-xilligini oshiradi. Ular qo'shim-cha ravishda endometriyal to'qimalarni tizimli qo'llab-quvvatlash uchun juda muhim bo'lgan kollagen hosil bo'lishini rag'batlantiradi. Kollagen ishlab chiqa-rishni va biriktiruvchi to'qima o'sish omilini (CTGF) rag'batlantirish uchun tan olingan muhim o'sish elementi to'qimalarni tiklash uchun muhim bo'li-shi mumkin bo'lgan TGF-b1 hisoblana-di. CTGFni qo'zg'atish orqali TGF-b1 Smad2/3 signalizatsiya yo'llarini ishga tushiradi, bu esa kollagen hosil bo'lishi-ga olib keladi. Bundan tashqari, TGF-b1 va CTGF har biri kollagen sintezi uchun muhim bo'lgan issiqlik ajablantiradigan protein 47 (HSP47) ifodasini targ'ib qila-di, bu o'sish omillari kollagen shakllani-shi va to'qimalarni tiklashni boshqaradi-gan murakkab yo'llarni ko'rsatadi. [31], O'sish elementlari mobil proliferatsiya va kollagen hosil bo'lishini rag'batlanti-rishi sababli to'qimalarning yangilanishi va tiklanishini osonlashtirishda muhim funktsiyaga ega. Endometriy va bosh-qa organlar ichidagi yaralarni tiklash, fibroz va to'qimalarni tiklashni o'z ich-iga olgan bir nechta klinik sharoitlarda o'sish elementlarining shifobaxsh qobili-

yatidan to'liq foydalanish uchun ushbu elementlarning hujayra faoliyatini va kollagen sintezini qanday yaxshilashini tushunish juda muhimdir. [32],

Ildiz hujayralarini jalb qilish.

TBP to'qimalarning yangilanishi va tiklash tizimidagi foydali resurslar bilan bog'liq bo'lgan hujayralarning alohida turlariga aylanishi mumkin bo'lgan endometriyal ildiz hujayralarini tortilishini va tezkorligini osonlashtiradi. TBP ning endometriyal ildiz hujayralarini rag'batlantirish va jalb qilish qobiliyati uning regenerativ qobiliyatini ta'kidlaydi, bu tananing o'ziga xos tiklanish usullarini osonlashtiradi. TBP bu ildiz hujayralarining ma'lum hujayralarga differensiallanishiga yordam beradi, bu esa to'qimalarning tiklanishiga, kollagen shakllanishiga va to'qimalarning umumiy tiklanishiga yordam beradi. Ushbu protsedura chandqlarni tiklashni rag'batlantirish va shikastlangan endometriyal to'qimalarni tiklashga yordam berishda TBP ning shifobaxsh afzalliklarini ta'kidlaydi, bu esa to'qimalarning yangilanishi va tiklanishini kuchaytirishning samarali usulini taqdim etadi. TBP vositasi endometriyal ildiz hujayralarini jalb qilish va faollashtirish qobiliyati tufayli to'qimalarning yangilanishini rag'batlantirish va tiklanish tizimini osonlashtirishda ta'sirli ekanligi isbotlangan. TBP terapiyasi orqali sog'liqni saqlash mutaxassisleri tananing tug'ma davolash usullarini yanada kuchaytirishi, to'qimalarni tiklashga ilhomlantirishi va buzilgan endometriyal to'qimalarning yangilanishini osonlashtirishi mumkin. [26],

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, endometriyga TBP (trombotsitlarga boy plazma) kiritish orqali

hujayra proliferatsiyasi, kollagen sintezi va immun muvozanat sezilarli darajada yaxshilanadi. TBP uterin NK va T-regulyator hujayralarni faollashtirib, retseptivlikni oshiradi hamda implantatsiyani qo'llab-quvvatlaydi. PRP dozalash va qabul qilish rejimini optimallashtirish natijadorlikni oshirib, bepustlikni davolashda yangi individual yondashuvlarni yaratishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Du, J., Lu, H., Yu, X., Lü, Z., Mi, L., & Zhang, X. (2020).

Efficacy and safety of platelet-rich plasma for the treatment of thin endometrium: A protocol for systematic review and meta-analysis. *Medicine (Baltimore)*, 99(18), e18848. <https://doi.org/10.1097/MD.00000000000018848>

2. Obidniak, D., Gzgzyan, A., Niauri, D., et al. (2023).

Randomized controlled trial evaluating efficacy of autologous platelet-rich plasma therapy for patients with recurrent implantation failure in frozen-thawed embryo transfer after PGT-A. *Human Reproduction*, 38(Supplement 1), dead093. <https://doi.org/10.1093/humrep/dead093.888>

3. Elnafarawi, M. A., Elsherbiny, M. F., Tawfik, W. M., & Elbrahim, D. M. (2022).

The role of platelet-rich plasma (PRP) in recurrent implantation failure (RIF). *Benha Journal of Applied Sciences*, 7(2), 127–134. <https://doi.org/10.21608/bjas.2022.244603>

4. Lessey, B. A., & Young, S. L. (2019).

What exactly is endometrial receptivity? *Fertility and Sterility*, 111(4), 611–617. <https://doi.org/10.1016/j.fertnstert.2019.02.012>

5. Alawadhi, F., Du, H., Cakmak, H., & Taylor, H. S. (2014).

- Bone marrow-derived stem cell (BMD-SC) transplantation improves fertility in a murine model of Asherman's syndrome. *PLoS ONE*, 9(5), e96662. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0096662>
6. Yu, N., Zhang, B., Xu, M., Wang, S., Liu, R., Wu, J., & Zhu, Y. (2020). Platelet-rich plasma improves endometrial receptivity via regulating uNK cells and inflammatory cytokines in mice. *Reproductive Biology and Endocrinology*, 18, 28. <https://doi.org/10.1186/s12958-020-00591-5>
 7. Chang, Y., Li, J., Chen, Y., Wei, L., Yang, X., & Shi, Y. (2015). Autologous platelet-rich plasma promotes endometrial growth and improves pregnancy outcome during in vitro fertilization. *International Journal of Clinical and Experimental Medicine*, 8(1), 1286–1290.
 8. Nazari, L., Salehpour, S., Hoseini, S., & Aflatoonian, R. (2022). A review on the application of platelet-rich plasma in infertility and reproductive medicine. *International Journal of Reproductive Biomedicine*, 20(2), 85–94
 9. Jang, H., Kim, H., Lee, J. H., & Kim, J. (2021). Molecular signature of PRP-induced regeneration in endometrial tissue: Up-regulation of MELTF and ECM remodeling genes. *Journal of Assisted Reproduction and Genetics*, 38(5), 1061–1070
 10. Salamonsen, L. A., Dimitriadis, E., & Evans, J. (2016). Dynamic changes in the endometrial microenvironment during the menstrual cycle: A review of immune and growth factor regulation. *Reproduction*, 152(6), R127–R137
 11. Wu, X., Wang, Y., Wei, L., & Liu, L. (2023). TGF- β 1-induced collagen synthesis in endometrial stromal cells through Smad2/3 and CTGF pathways. *Journal of Cellular Physiology*, 238(1), 89–97
 12. De Miguel-Gómez, L., et al. (2022). Stem cell-based therapy for endometrial regeneration: Molecular mechanisms and clinical potential. *Stem Cell Research & Therapy*, 13(1), 171. <https://doi.org/10.1186/s13287-022-02876-3>
 13. Shokeir, T., & Sadek, E. (2021). Regenerative medicine in reproductive science: The role of PRP in uterine rejuvenation. *Middle East Fertility Society Journal*, 26, 20.
 14. Chen, Y., Li, T., Liu, H., & Guo, Y. (2020). Intrauterine infusion of platelet-rich plasma improves pregnancy outcomes in women with repeated implantation failure. *American Journal of Reproductive Immunology*, 84(3), e13270. <https://doi.org/10.1111/aji.13270>
 15. Coughlan, C., et al. (2014). Recurrent implantation failure: Definition and management. *Reproductive BioMedicine Online*, 28(1), 14–38.
 16. Gnainsky, Y., et al. (2015). Endometrial immune profiling: A promising diagnostic tool to personalize embryo transfer. *Fertility and Sterility*, 104(4), 931–938.
 17. ACOG Practice Bulletin No. 218. (2020). Chronic Endometritis and its impact on fertility. American College of Obstetricians and Gynecologists.
 18. Moffett, A., & Colucci, F. (2015). Uterine NK cells: Active regulators at the maternal-fetal interface. *Journal of Clinical Investigation*, 125(12), 4676–4682. <https://doi.org/10.1172/JCI75617>
 19. Miyazono, K., et al. (2018). TGF- β signaling and collagen regulation in tissue repair and fibrosis. *International Journal of Molecular Sciences*, 19(11), 3642.
 20. Nagai, Y., & Koga, K. (2021). TGF- β 1 and HSP47 expression in en-

ometrial tissue remodeling and fibrosis. *Reproductive Sciences*, 28(1), 51–60.

21. Mao, Y., Wang, M., Xiong, Y., Wen, X., Zhang, M., Ma, L., & Zhang, Y. (2023).

MELTF might regulate ferroptosis, pyroptosis, and autophagy in PRP-mediated endometrial epithelium regeneration. *Reproductive Sciences*, 30, 1506–1520. <https://doi.org/10.1007/s43032-022-01101-y>

22. Kuroda, K., Matsumoto, A., Horioka, T., et al. (2023).

Transcriptomic profiling analysis of human endometrial stromal cells treated with autologous PRP. *Reproductive Medicine and Biology*, 22, e12498. <https://doi.org/10.1002/rmb2.12498>

23. Cavallo, C., Roffi, A., Grigolo, B., et al. (2016).

Platelet-rich plasma: The choice of activation method affects the release of bioactive molecules. *BioMed Research International*, 2016, 6591717. <https://doi.org/10.1155/2016/6591717>

24. Sánchez, M., Beitia, M., Pompei, O., et al. (2020).

Isolation, activation, and mechanism of action of PRP and its applications for joint repair. In: Choudhery, M. (Ed.), *Regenerative Medicine*. London: IntechOpen. <https://doi.org/10.5772/intechopen.90543>

25. Serdarogullari, M., Raad, G., Makieva, S., Liperis, G., Fraire-Zamora, J. J., & Celik-Ozenci, C. (2024).

Revitalising female fertility: PRP — hype or hope? *Reproductive BioMedicine Online*, Article ID 103813. <https://doi.org/10.1016/j.rbmo.2024.103813>

26. Qian, Y., Han, Q., Chen, W., et al. (2017).

PRP-derived growth factors contribute to stem cell differentiation in musculoskeletal regeneration. *Frontiers in Chemistry*, 5, 89. <https://doi.org/10.3389/fchem.2017.00089>

27. Italiano, J. E. Jr., Richardson, J. L., Patel-Hett, S., et al. (2008).

Angiogenesis is regulated by a novel mechanism: Pro- and antiangiogenic proteins are organized into separate platelet alpha granules and differentially released. *Blood*, 111(3), 1227–1233. <https://doi.org/10.1182/blood-2007-09-113837>

28. Etulain, J., Fondevila, C., Negrotto, S., & Schattner, M. (2013).

Platelet-mediated angiogenesis is independent of VEGF and fully inhibited by aspirin. *British Journal of Pharmacology*, 170(2), 255–265. <https://doi.org/10.1111/bph.12250>

29. Sabrkhany, S., Griffioen, A. W., & Oude Egbrink, M. G. (2011).

The role of blood platelets in tumor angiogenesis. *Biochimica et Biophysica Acta (BBA) - Reviews on Cancer*, 1815(2), 189–196. <https://doi.org/10.1016/j.bbcan.2010.12.001>

30. Kisucka, J., Butterfield, C. E., Duda, D. G., et al. (2006).

Platelets and platelet adhesion support angiogenesis while preventing excessive hemorrhage. *Proceedings of the National Academy of Sciences of the USA*, 103(4), 855–860. <https://doi.org/10.1073/pnas.0510412103>

31. Cheong, M. L., Lai, T. H., & Wu, W. B. (2024).

CTGF mediates TGF- β -induced collagen synthesis in endometrial stromal cells. *Cureus*, 16(5), e59728. <https://doi.org/10.7759/cureus.59728>

32. Eremichev, R., Kulebyakina, M., Alexandrushkina, N., et al. (2021).

Scar-free healing of endometrium: Tissue-specific program of stromal cells and its induction by soluble factors produced after damage. *Frontiers in Cell and Developmental Biology*, 9, 616893. <https://doi.org/10.3389/fcell.2021.616893>

РЕЗЮМЕ

ОПТИМИЗАЦИЯ МЕТОДИКИ ВВЕДЕНИЯ ОБОГАТЕННОЙ ТРОМБОЦИТАМИ ПЛАЗМЫ В ЭНДОМЕТРИЙ: ВЛИЯНИЕ ДОЗИРОВКИ И РЕЖИМА ВВЕДЕНИЯ НА МЕСТНЫЙ ИММУННЫЙ ОТВЕТ ЭНДОМЕТРИЯ И КЛИНИЧЕСКИЙ ИСХОД

Абдуллаева Нилуфар Адхамжон кизи, Юлдашева Сурая Зариповна

*Ташкентский Педиатрический Медицинский Институт.**Ташкент Республика Узбекистана*abdullayevanilufar97@gmail.com

Ключевые слова: БТП, (богатая тромбоцитами плазма), восприимчивость эндометрия, тонкий эндометрий, ангиогенез, пролиферация, бесплодие, ВРТ.

Статья посвящена оптимизации техники введения тромбоцитарной плазмы в эндометрий при нарушениях рецептивности. Исследуется влияние дозировки и режима введения ТБП на локальный иммунный ответ и клинические исходы. ТБП активирует ростовые факторы, улучшает васкуляризацию и регенерацию эндометрия, модулирует локальный иммунитет. Оптимальные параметры введения способствуют повышению рецептивности эндометрия и эффективности лечения бесплодия, особенно при повторных неудачных имплантациях.

SUMMARY

OPTIMIZATION OF THE TECHNIQUE OF INTRODUCING PLATELET-RICH PLASMA INTO THE ENDOMETRY: IMPACT OF DOSAGE AND ADMINISTRATION REGIME ON THE LOCAL IMMUNE RESPONSE OF THE ENDOMETRIUM AND CLINICAL OUTCOMES

Abdullayeva Nilufar Adxamjon qizi, Yuldasheva Suraya Zaripovna

Tashkent Pediatric Medical Institute, Tashkent, Republic of Uzbekistan.abdullayevanilufar97@gmail.com

Keywords: PRP (platelet-rich plasma), endometrial receptivity, thin endometrium, angiogenesis, proliferation, infertility, ART.

Materiallar va usullar. Tadqiqot uchun Respublika OITSga qarshi kurash markazida davolanayotgan 48 nafar OIV-musbat bolalarda 2022-yilning sentyabr oyidan dekabr oyigacha tadqiqot olib borildi. O'rtacha yosh $14,7 \pm 8,2$ yoshni tashkil etdi. Ulardan 28 nafari qiz bolalar, 20 nafari esa o'g'il bolalarni tashkil etdi. Tadqiqot ob'ekti sifatida bolalarning ensa sohasidan olingan soch tolalari ishlatilgan. Analizga 2 hafta qolganida ishtirokchilarga selen yoki rux saqlovchi shampunlar ishlatmaslik tavsiya etildi (Atom energiyasi xalqaro agentligi tavsiyalariga muvofiq). Soch namunalari qog'ozga o'ralib, laboratoriyaga yuborildi. Soch tarkibidagi elementlarni aniqlash uchun neytron-aktivatsion tahlil usuli qo'llanilgan bo'lib, u juda yuqori aniqlik bilan ko'p miqdordagi elementlarni aniqlash imkonini beradi. Neytronlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining VVR-SM yadro reaktori qo'llanildi. Ayrim elementlarni aniqlash chegarasi 1 ng/g darajasiga yetadi. Baholangan elementlar qatoriga kalsiy (Ca), magniy (Mg), natriy (Na), kaliy (K), selen (Se), rux (Zn), temir (Fe), mis (Cu), xlor (Cl), simob (Hg), uran (U), oltin (Au), kobalt (Co) va boshqalar kiritilgan. Statistik tahlillar "OriginPro" dasturiy ta'minoti yordamida bajarildi. Hisob-kitoblar da-

vomida o'rtacha qiymat (M), standart xato (m), St'yudentning t-kriteriyasi va p-qiymatlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari statistik jihatdan ishonchli deb baholandi, agar $p < 0,05$ bo'lsa, bu farqlar ahamiyatli deb qabul qilindi.

Natijalar va muhokama. Olib borilgan tadqiqot natijalari OIV (odam immunitet tanqisligi virusi) bilan yas-hovchi bolalarda makro va mikroelementlar balansining sezilarli buzilishlar bilan kechishini ko'rsatdi. Ayniqsa, xlor (Cl), kalsiy (Ca), selen (Se) kabi elementlar miqdorining pasayishi statistik jihatdan ishonchli ($p < 0,05$) bo'lib, bu elementlarning OIV-infeksiyasi patogenezi va immun javobdagi ro'liga aloqadorligini ko'rsatadi [2, 13]. Jinsga qarab tahlil qilinganda, o'g'il bolalarda Cl, Ca va Se darajasining keskin kamaygani, qiz bolalarda esa Ca darajasining sezilarli ortgani va Hg (simob) miqdorining kamaygani aniqlandi. Bu farqlar jinsiy gormonal fon va metabolik xususiyatlarning farqliligi bilan izohlanadi [10]. Yosh oralig'ida solishtirma tahlil shuni ko'rsatdiki, 10–14 yoshdagi bolalarda Cl va Ca darajalari OIV-manfiy guruhga nisbatan ancha past bo'lsa, 15–19 yoshli OIV-musbat bemorlarda esa Ca, Cr (xrom) va Se darajasidagi farqlar kuzatildi. Bu esa OIV infeksiyasining o'sish jarayonida elementlar almashinuviga bo'lgan ta'sirini yoshga bog'liq xususiyatlarga ega ekanini anglatadi [6, 14]. Uch oylik dinamik tahlil esa Ca, Cu (mis), Ag (kumush) va U (uran) miqdorining oshganini, Fe (temir), Mn (marganets), Zn (rux) va Se darajalari esa kamayganini ko'rsatdi. Ayniqsa, Zn va Se kabi immunomodulyator mikroelementlarning kamayishi virus replikatsiyasi va immun zaiflik

holatlarini kuchaytirishi mumkin [11, 15]. Bu o'zgarishlarning asosiy sabablari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi: OIV infeksiyasi fonida organizmda oksidlovchi stressning kuchayishi; Antiretrovirus terapiyaning metabolik yon ta'sirlari; Ovqatlanish yetishmovchiligi va ichki yallig'lanish reaksiyalari. Olingan natijalar avvalgi ilmiy manbalarda qayd etilgan natijalar bilan muvofiqdir. Masalan, E.I. Studenikina (2020) OIV-infeksiyasi bilan kasallangan bolalarda temir va rux yetishmovchiligi anemiyaning rivojlanishiga olib kelishini qayd

etgan [2]. Shuningdek, JSST (2003) ma'lumotlariga ko'ra, selen darajasining pasayishi virus yuklamasi va CD4+ limfotsitlar kamayishi bilan bevosita bog'liq [7]. Shuni ta'kidlash joizki, soch namunalarini asosidagi mikroelement tahlili bemorlarning uzoq muddatli metabolik holatini baholashda an'anaviy qon tahliliga qaraganda kengroq ma'lumot beradi [9]. Bu yondashuv nafaqat diagnostika, balki reabilitatsiya va ovqatlanishni rejalashtirishda ham muhim vosita bo'lishi mumkin.

1-jadval

OIV-manfiy va OIV-musbat o'g'il bolalarning sochidagi elementlar (mkg/g)

| Element | OIV-manfiy (M±m) | OIV-musbat (M±m) | p-qiyamat |
|---------|------------------|------------------|-----------|
| Cl | 2241,67±285,02 | 1372,71±224,33 | 0,026 |
| Ca | 396,67±58,29 | 1052,76±260,70 | 0,023 |
| Se | 0,56±0,03 | 0,43±0,03 | 0,004 |

2-jadval

OIV-manfiy va OIV-musbat qiz bolalar sochidagi elementlar (mkg/g)

| Element | OIV-manfiy (M±m) | OIV-musbat (M±m) | p-qiyamat |
|---------|------------------|------------------|-----------|
| Ca | 603,75±146,88 | 1393,23±227,40 | 0,006 |
| Hg | 0,09±0,02 | 0,04±0,01 | 0,029 |

3-jadval

OIV-musbat bolalarda 3 oy davomida o'zgarishlar

| Element | 1-tahlil (M±m) | 2-tahlil (M±m) | p |
|---------|----------------|----------------|-------|
| Cu | 9,17±0,77 | 14,70±1,23 | <0,05 |
| Zn | 195,34±10,75 | 160,95±6,12 | <0,05 |
| Fe | 20,01±2,31 | 13,89±0,75 | <0,05 |
| Mn | 0,71±0,11 | 0,39±0,05 | <0,05 |
| Se | 0,41±0,03 | 0,30±0,03 | <0,05 |

Xulosa: Tadqiqot natijalari OIV-infeksiyasi fonida mineral moddalar muvozanatida jiddiy o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, selen, kalsiy, temir va marganes darajalari sezilarli o'zgarishga uchragan. Shuningdek, soch tahlili orqali bu o'zgarishlar uzoq mud-

datli monitoring uchun ishonchli indikator hisoblanadi. Shunga ko'ra, OIV-musbat bolalarda makro- va mikroelementlar monitoringini doimiy olib borish, terapiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ВОЗ. Глобальный отчет по СПИ-Ду 2023. Женева: Всемирная организация здравоохранения, 2023. 350 с.
2. Макарова Н.М., Попов А.В. Биохимические особенности микроэlementного обмена у детей с ВИЧ. // Вопросы современной педиатрии. – 2021. – Т. 20, №2. – С. 89–94.
3. Sempos C.T., Taylor P.R. Micronutrients and HIV disease: a review. // Nutritional Reviews. – 2020. – Vol. 78, No. 6. – P. 46–53.
4. Громова О.А., Дмитриева Л.А. Микроэлементозы в педиатрической практике. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2021. – 192 с.
5. Fawzi W.W., Msamanga G.I. Micronutrients and HIV/AIDS. // American Journal of Clinical Nutrition. – 2020. – Vol. 89, No. 6. – P. 171–179.
6. Ашрафян Л.А., Копанева С.Г. Нарушения микроэlementного статуса при хронических инфекциях. // Инфекционные болезни. – 2022. – №3. – С. 33–38.
7. World Health Organization. Nutrient Requirements for People Living with HIV/AIDS. Geneva: WHO, 2021. 82 p.
8. Bisson G.P., Frank I. Management of HIV infection in children. // New England Journal of Medicine. – 2019. – Vol. 381, No. 18. – P. 1761–1771.
9. Жукова А.В., Беляева И.Н. Макро- и микроэлементы в клинической практике. – СПб.: СпецЛит, 2020. – 160 с.
10. Купрейшен А.Б., Орлова Е.Ю. Особенности питания у детей с ВИЧ-инфекцией. // Педиатрия. – 2021. – №4. – С. 53–57.
11. Briend A., Collins S. Zinc deficiency in HIV-infected children. // Lancet Child & Adolescent Health. – 2020. – Vol. 4, No. 1. – P. 19–25.
12. Государственный доклад о санитарно-эпидемиологическом благополучии населения Российской Федерации в 2022 году. – М.: Роспотребнадзор, 2023. – 240 с.
13. Шишкина И.М., Сергеев Ю.А. Роль селена и цинка в иммунном ответе. // Клиническая медицина. – 2021. – Т. 99, №5. – С. 27–32.
14. Bailey R.L., West K.P., Black R.E. The epidemiology of global micronutrient deficiencies. // Annals of Nutrition and Metabolism. – 2021. – Vol. 66. – P. 22–33.
15. Калинина Н.А., Сивцева И.В. Нарушения обмена кальция и магния у детей с иммунодефицитом. // Медицинская иммунология. – 2020. – №6. – С. 45–49.

РЕЗЮМЕ
ИЗМЕНЕНИЕ УРОВНЯ МАКРО-
И МИКРОЭЛЕМЕНТОВ У ВИЧ-
ПОЗИТИВНЫХ ДЕТЕЙ: ВОЗРАСТНЫЕ
ОСОБЕННОСТИ И ДИНАМИЧЕСКИЙ
АНАЛИЗ

^{1,2}Каримов Дониёр Алишер угли,
³Ахмеджанова Зулфия Исмаиловна,
¹Аюпова Шахноза Тохиржон кизи,
¹Ахмедова Ойдин Анваровна

¹Ташкентский государственный
 медицинский университет,
²Среднеазиатский университет,
³Институт иммунологии и геномики
 человека АН РУз

d.karimov@centralasian.uz

Ключевые слова: ВИЧ (вирус иммунодефицита человека), макроэлементы, микроэлементы, CD4 клетки, антиретровирусная терапия, селен, кальций, железо.

Настоящее исследование посвящено оценке уровней макро- и микроэлементов в волосах детей, живущих с ВИЧ, и их влияния на иммунный статус и клиническое течение заболевания. В исследование были включены 48 пациентов, проходивших лечение в Республиканском центре по борьбе со СПИДом. Концентрации кальция (Ca), магния (Mg), цинка (Zn), железа (Fe), селена (Se) и других элементов в волосах определялись методом нейтронно-активационного анализа. У ВИЧ-положительных детей были выявлены достоверно более низкие уровни хлора, кальция и селена по сравнению с ВИЧ-отрицательной группой. Также отмечены возрастные различия в показателях минерального обмена. Повторные исследования, проведённые через три месяца, показали динамические изменения микроэлементного статуса. Таким образом, у детей с ВИЧ-инфекцией наблюдаются нарушения минерального обмена, что требует регулярного мониторинга и индивидуального подхода к питанию и терапии.

SUMMARY
CHANGES IN MACRO- AND
MICROELEMENT CONTENT IN HIV-
POSITIVE CHILDREN: AGE-SPECIFIC
CHARACTERISTICS AND DYNAMIC
ANALYSIS

^{1,2}Karimov Doniyor Alisher o'g'li,
³Akhmedjanova Zulfiya Ismailovna,
¹Ayupova Shahnoza Tokhirjon qizi,
¹Ahmedova Oydin Anvarovna

¹Tashkent State Medical University,
²Central Asian University,
³Institute of Immunology and Human
 Genomics of Academy of Sciences of the
 Republic of Uzbekistan

d.karimov@centralasian.uz

Key words: HIV (human immunodeficiency virus), macroelements, microelements, CD4 cells, antiretroviral therapy, selenium, calcium, iron.

This study examines the concentrations of macro- and microelements in the hair of HIV-positive children and evaluates their impact on immune status and disease progression. A total of 48 patients receiving treatment at the Republican AIDS Center participated in the study. Levels of calcium, magnesium, zinc, iron, selenium, and other elements were analyzed using neutron activation analysis (NAA). Significant differences were found between HIV-positive and HIV-negative children, particularly in the levels of chlorine, calcium, and selenium. Age-related differences in mineral composition were also identified. A dynamic 3-month follow-up revealed marked fluctuations in several elements, including a decrease in iron, zinc, selenium, and manganese, and an increase in calcium, copper, and silver. These findings suggest that HIV-infection affects mineral metabolism in children and highlight the importance of individualized nutritional strategies and regular monitoring of micro-elemental status in pediatric HIV care to support immune function and improve treatment outcomes.

UDK: 616.98-091.8; 614.4

BLASTOTSISTOZNING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA KLINIK KECHISH VARIANTLARI

(Adabiyotlar sharhi)

**Karimova Mavluda Turabdjanoʻva, Anvarov Jaxongir Abralovich,
Tursunboev Qurbon Roʻziboy oʻgʻli**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, Oʻzbekiston

tmoinfection@mail.ru

Blastotsistoz dunyo boʻylab keng tarqalgan ichak protozoy kasalliklaridan biri boʻlib, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda sanitariya-gigiena sharoitlarining yetarli emasligi tufayli yuqori darajada uchraydi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) maʼlumotlariga koʻra, bu protozoy infeksiyasi aholining katta qismini qamrab olgan, lekin koʻp hollarda klinik simptomlarsiz kechadi [1]. Yevropa va Amerika qitʼalaridagi baʼzi tadqiqotlar, *Blastocystis hominis* infeksiyasining asimptomatik holatlarda ham yuqori darajada tarqalishini koʻrsatmoqda [2].

Blastocystis spp. — bu insonlar va hayvonlarda uchraydigan keng tarqalgan bir hujayrali ichak parazitidir. Uning yuqori darajada tarqalganligiga qaramay, *Blastocystis hominis* ning patogenezdagi roli hanuzgacha ilmiy munozaralar mavzusi boʻlib qolmoqda. Ayrim tadqiqotchilar uni bezarar saprofit deb hisoblasalar, boshqalar esa uning ichakdagi koʻpgina buzilishlari bilan bogʻliq boʻlishi mumkinligini taʼkidlashmoqda [3].

Blastotsistoz (*Blastocystis hominis*) insonning ichak parazitlar infeksiyalari-dan biri boʻlib, turli mintaqalarda tarqalgan va baʼzi hollarda klinik ahamiyatga ega infeksiya sifatida namoyon boʻladi.

Odatda sanitariya sharoitlari yetarlicha emas boʻlgan mintaqalarda keng tarqalgan, ammo rivojlangan mamlakatlarda ham uchrab turadi.

Qoʻzgʻatuvchining bir nechta morfologik shakllari mavjud. Blastotsistalar tashqi koʻrinishi, kattaligi, morfologik shakliga qarab bir necha turlarga taqsimlanadi: vakuola, amebasimon, granulyar va sista koʻrinishidagi shakllari yaxshi oʻrganilgan.

1. Vakuolyar shakli: eng koʻp uchraydigan shakl boʻlib, bu shaklda markaziy vakuola va uni oʻrab turgan sitoplazmada 1–6 ta yadro boʻladi. Odatda parazitning ushbu shakli simptomlarsiz tashuvchilardan ajratib olinadi.

2. Granulyar shakl: 1 dan 4 ta yadroni oʻz ichiga oladi, oʻlchami. Unda metabolik, reproduktiv va lipid granulalar mavjud boʻladi.

3. Amyobasimon shakli: bu shaklning oʻlchami taxminan 10 mkm boʻlib, juda kam aniqlanadi. Bu shaklda markaziy tana boʻlmaydi, lekin 1 yoki 2 ta sekin harakatlanuvchi psevdopodiyaga ega.

4. Sista shakli: oʻlchami 3–5 mkm boʻlib, tashqi muxitga shu koʻrinishda tarqaladi, bu shakli xlorli dezinfeksiyalovchi suyuqlilarga bi muncha chidamli

va past pH muhitda barqaror saqlanadi [4].

Blastocystis spp. genetik jihatdan xilma-xil bo'lib, hozirgi kunda 17 ga yaqin subtiplari (ST) aniqlangan [5]. Insonlarda eng ko'p uchraydigan subtiplar — ST1–ST7 bo'lib, ularning tarqalishi quyidagicha: ST1–ST4: insonlarda keng tarqalgan. ST5: asosan cho'chqalarda uchraydi, lekin insonlarda ham kamdan-kam hollarda aniqlangan, va albat-ta insonlarda ham kasallik chaqirishi mumkin. ST6 va ST7: qushlarda keng tarqalgan, insonlarda kam uchraydi. ST8: ko'proq maymunlarda aniqlangan. ST9 va ST12: insonlarda kam uchraydi, zoonoz xarakterga ega [6].

Xitoy, Turkiya va Eronda o'tkazilgan tadqiqotlarda ST3 subtipi qolganlarga nisbatan dominant ekanli aniqlangan. Xitoyda Mei et al., 2022 o'tkazgan tadqiqotda aniqlangan *Blastocystis spp.* ni ST3 subtipi 63,22% tashkil etgan [7]. Aydemir et al., 2024 o'tkazgan tadqiqotda esa ST3, ST1 va ST2 subtiplari boshqa subtiplarga nisbatan ishonarli darajada ko'p aniqlangan [8]. Eronda Khoshnood et al., 2015 va Salehi et al., 2021 o'tkazgan tadqiqotda Eronning shimoli-sharqiy hududlarida *Blastocystis* subtiplari orasida ST3 ustunlik qilgan bo'lsa, mam-lakatning janubi-g'arbiy mintaqalarida esa ST4 eng ko'p uchraydigan subtip sifatida qayd etilgan [9].

Blastocystis hominis infeksiyasi inson va hayvonlar orqali tarqaladi. Asosiy yuqish manbalari sifatida ifloslangan suv, oziq-ovqat mahsulotlari va shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilmaslik ko'rsatiladi [10]. Ba'zi tadqiqotlar blastotsistozning yuqishi uchun zoonoz manbalarning ahamiyatini ta'kidlaydi,

chunki hayvonlar ham bu parazitning tashuvchisi bo'lishi mumkin [5].

Epidemiologik tadqiqotlardan ma'lumki, infeksiyaning tarqalishi yosh, immun tizim holati va gigiena shartlariga bog'liq. Bolalar va immuniteti susaygan shaxslarda blastotsistoz ko'proq klinik ahamiyatga ega bo'ladi [6]. Bir qator tadqiqotlarda erkaklar ayollarga nisbatan ko'p kasallanishi aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotlarda past ta'lim darajasi va muayyan turdagi kasb faoliyatlari blastotsistoz infeksiyasi yuqori ko'rsatkichlari bilan bog'liq deb topilgan [11].

Blastotsistozning klinik ko'rinishi har xil bo'lishi mumkin. Kasallik yuqqan hollarda insonni birinchi navbatda hazm tizimi faoliyatining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan alomatlar – qorinda og'riq, ich ketishi, ko'ngil aynishi, qusish, qorinning dam bo'lishi va tana vaznining kamayishi, teridagi o'zgarishlar va organizmning zaharlanishiga xos alomatlar namoyon bo'ladi. Kasallikning asosiy simptomlari qorinda og'riq, ichning suyuq ketishi (diareya), ko'ngil aynishi va qayt qilish. Simptomlar kasallik o'tkir kechganida 1-11 kun oralig'ida davom etadi, o'tkir osti shaklida 3-4 xaftagacha davom etadi, surunkali shaklida esa kasallik belgilari 3 oydan 1 yilgacha davom etishi mumkin. Ko'pchilik hollarda infeksiya asimptomatik kechadi. **Ko'pgina tadqiqotlar kasallikning asosiy belgilari sifatida qorinda og'riq, ich ketishi (diareya), meteorizm, ko'ngil aynish va qayt qilish kabi kasallik belgilarini bayon qilishgan. Ich ketish o'tkir yoki surunkali va davriy xarakterga ega bo'lishi mumkin, masalan Amoak, S., & Soldera, J. (2024) o'tkazgan klinik tadqiqotda [12].**

Blastocystis hominis ichak ta'sirlanish sindromiga — ayniqsa, infeksiyadan so'ng rivojlanadigan ichak ta'sirlanish sindromi (post-infectious Irritable Syndrome) bilan bog'liq deb hisoblanadi. Unga mansub ba'zi turlari (subtiplari) ichakdagi mikrobiom disbalansi (disbi-oz) rivojlanishiga va ichak shilliq qavatida yallig'lanish jarayonlari rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin [13, 14, 15, 16].

Qorin og'rig'i spazmli xarakterga ega bo'lib, og'riq qarinning pastki qismida seziladi. Turkiyalik Beyhan et al., 2015 o'tkazgan tadqiqotda *Blastocystis hominis* chaqirgan infeksiyada qorinda og'riq 27.3% bemorlarda aniqlangan bo'lsa, o'tkir diareya 19.6% bemorlarda kuzatilgan. Yuqoridagi simptomlar bilan birga isitma chiqishi, anal sohasida qichishish yoki achishish xissi, ko'ngil aynishi va ishtaxasizlik kabi belgilar 70.2% bemorlarda kuzatilgan [15, 17].

Ayrim tadqiqotchilar esa aksincha bemorlarda ich qotishi va meteorizm belgilari to'g'risida ma'lumot berib o'tganlar. Bu balki ichak funksiyasining buzilishi tufayli kuzatilishi mumkin [18]. Bir qator tadqiqotchilar kasallikdan so'ng uzoq vaqtgacha **asteniya va charchoq** qolishi haqida ma'lumot bergan [13, 15, 17].

Antonelli et al. keltirgan klinik holat sharhida blastotsistoz aniqlangan 10 yoshli bemorda qorinda og'riq, suvsimon suyuq diareya, ishtaxasizlik, ko'ngil aynishi va qayt qilish kabi simptomlar bilan birgalikda rektal qon ketish ham kuzatilgani haqida ma'lumot bergan. Bu bemorda kasallik ich ketishi va isitma bilan boshlangan. Klinikada najas namunasida *B. Hominis* topilgan va kas-

allik metronidazol bilan samarali davolangan [19].

Ba'zi tadqiqotlar *Blastocystis hominis* infeksiyasining insonning ichak mikrobiotasiga ta'sir qilishi va ba'zi hollarda ichki yallig'lanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [6].

Blastocystis spp. yuqqanligini laborator tashxislashda najas mikroskopiyasi asosiy usul hisoblanib, zamonaviy tekshirish usullaridan immunologik va molekulyar-biologik usullar keng qo'llanilmoqda. Hozirda parazitlar invaziyalarni tashxislashda formalin-efirli cho'ktirish orqali boyitish usuli ham amaliyotga kiritilgan [20]. Kultural usul orqali parazitlarni aniqlashda turli ozuqa muhitlaridan foydalaniladi. Immunologik va virusologik tekshiruv usullari bugungi kunda amaliyotda keng qo'llanilayotgan zamonaviy laborator tekshiruv usullaridan bo'lib hisoblanadi.

Blastotsistoz tashxisi odatda najas tahlili orqali amalga oshiriladi. Yangi molekulyar usullar, xususan polimeraza zanjirli reaksiyasi PSR (polimerazali zanjirli reaksiya), infeksiyaning aniqlanish samaradorligini oshirgan. Bemor najasidan tayyorlangan surtma namunalari ushbu kasallikning standart va umumqabul qilingan tashxisot usullaridan biri hisoblanadi. Tashxisotda kultural usul ham qo'llaniladi, biroq ushbu usulning samaradorligi ko'p hollarda laboratoriyaning material-texnik ta'minoti va namuna olish texnikasiga bog'liq bo'lib, yuqori natija yoki yolg'on salbiy natija berishi mumkin [21].

Blastotsistoz dunyo bo'ylab keng tarqalgan parazitlar infeksiya bo'lib, asosan sanitariya sharoitlari yomon bo'lgan

mamlakatlarda kuzatiladi. Blastocystis hominis turining turli subtiplari bor, ularning tarqalishi mintaqalarga qarab farq qiladi. Infeksiya asosan ifloslangan suv va oziq-ovqat orqali yuqadi.

Blastotsistozning klinik ko'rinishlari turli xil bo'lib, asosiy simptomlar orasida qorin og'rig'i, ich ketishi (diareya),

ko'ngil aynishi va qayt qilish, meteorizm va ishtaxasizlik kabi belgilar mavjud. Kasallikning o'tkir shakli bir necha kundan bir necha haftagacha davom etishi mumkin, surunkali shaklida esa belgilar uzoq muddat davom etishi mumkin. Diagnostika asosan najas tahlili va PSR usullari orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. WHO. (2021). World Health Organization - Parasites: Blastocystis spp.
2. Tan, K. S. W. (2008). New insights on classification, identification, and clinical relevance of Blastocystis spp. *Clin Microbiol Rev*, 21(4), 639–665.
3. Coyle, C.M.; Varughese, J.; Weiss, L.M.; Tanowitz, H.B. Blastocystis: To treat or not to treat. *Clin. Infect. Dis. Off. Publ. Infect. Dis. Soc. Am.* 2012, 54, 105–110.
4. Aykur M, Malatyalı E, Demirel F, et al. Blastocystis: A Mysterious Member of the Gut Microbiome. *Microorganisms*. 2024;12(3):461. Published 2024 Feb 24. doi:10.3390/microorganisms12030461
5. Cian, A., El Safadi, D., Osman, M., et al. (2017). Molecular epidemiology of Blastocystis sp. in various animal groups and evaluation of potential zoonotic risk. *PLoS ONE*, 12(4), e0169659.
6. Scanlan, P. D., & Stensvold, C. R. (2013). Blastocystis: getting to grips with our guileful guest. *Trends in Parasitology*, 29(11), 523-529.
7. Mei, X., Su, C., Wang, W., Zhang, B., Wei, L. & Zhang, Z. et al. (2023) Molecular prevalence and subtypes distribution of Blastocystis sp. among outpatients and inpatients in north and south areas of Henan Province, China. *Journal of Eukaryotic Microbiology*, 70, e12960.
8. Aydemir, S., Barlık, F., YÜREK-TÜRK, Ş., Saygin, M., Ünlü, A. H., Ekiçi, A., & Yılmaz, H. (2024). Prevalence of Blastocystis infection in humans in Türkiye: a systematic review and meta-analysis. *Microbial Pathogenesis*, 106876.
9. Salehi M, Mardaneh J, Niazkar HR, et al. Prevalence and Subtype Analysis of Blastocystis hominis Isolated from Patients in the Northeast of Iran. *J Parasitol Res*. 2021;2021:8821885. Published 2021 Jan 13. doi:10.1155/2021/8821885
10. Stensvold, C.R.; Tan, K.S.W.; Clark, C.G. Blastocystis. *Trends Parasitol.* 2020, 36, 315–316. [Google Scholar] [CrossRef]
11. Rudzińska, M., & Sikorska, K. (2023). Epidemiology of Blastocystis Infection: A Review of Data from Poland in Relation to Other Reports. *Pathogens*, 12(8), 1050. <https://doi.org/10.3390/pathogens12081050>
12. Amoak, S., & Soldera, J. (2024). Blastocystis hominis as a cause of chronic diarrhea in low-resource settings: A systematic review. *World Journal of Meta-Analysis*. <https://doi.org/10.13105/wjma.v12.i3.95631>
13. Tan KS. New insights on classification, identification, and clinical rele-

vance of *Blastocystis* spp. Clin Microbiol Rev. 2008;21(4):639-665. doi:10.1128/CMR.00022-08.

14. Andersen LO, Stensvold CR. Blastocystis in Health and Disease: Are We Moving from a Clinical to a Public Health Perspective?. J Clin Microbiol. 2016;54(3):524-528. doi:10.1128/JCM.02520-15

15. Aykur, M., Malatyali, E., Demirel, F., Cömert-Koçak, B., Gentekaki, E., Tsaousis, A. D., & Dogruman-Al, F. (2024). Blastocystis: A Mysterious Member of the Gut Microbiome. Microorganisms, 12. <https://doi.org/10.3390/microorganisms12030461>

16. Yakoob, J., et al. (2010). Irritable bowel syndrome: in search of an etiology: role of *Blastocystis hominis*. American Journal of Tropical Medicine and Hygiene, 82(2), 301-305.;

17. Beyhan, Y. E., Yilmaz, H., Taş Cengiz, Z., & Ekici, A. (2015). Clinical significance and prevalence of *Blastocystis hominis* in Van, Turkey. Saudi Medical Journal, 36(9), 1118–1121. <https://doi.org/10.15537/SMJ.2015.9.12444>

[org/10.15537/SMJ.2015.9.12444](https://doi.org/10.15537/SMJ.2015.9.12444)

18. Ustun, S., & Turgay, N. (2006). *Blastocystis hominis* and bowel diseases. Acta Parasitologica Turcica, 30(1), 72–76. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/17106862/>

19. Antonelli, F., Cantelli, L., De Maddi, F., & Lamba, M. (1996). *Blastocystis hominis* infection: a case report. MINERVA Pediatrica, 48(12), 571–573. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/9091775>

20. Малеев В. В., Токмалаев А. К., Кожевникова Г. М. и др. Клинические формы, диагностика и лечение инфекции, вызванной *Blastocystis species* // Терапевтический архив. - №11, - 2020. - С. 86-90.

21. Stensvold, C. R., Lewis, H. C., Hammerum, A. M., Porsbo, L. J., Nielsen, S. S., Olsen, K. E., ... & Mølbak, K. (2011). *Blastocystis*: unravelling potential risk factors and clinical significance of a common but neglected parasite. Epidemiology & Infection, 139(7), 1057-1072.

SUMMARY

EPIDEMIOLOGICAL FEATURES AND CLINICAL MANIFESTATIONS OF BLASTOCYSTOSIS

(Literature review)

**Karimova Mavluda Turabdjanoyna, Anvarov Jakhongir Abralovich,
Tursunboyev Qurbon Ruziboy ugli**

Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

tmmainfection@mail.ru

Keywords: Blastocystosis, *Blastocystis hominis*, infection, subtypes, epidemiology, clinical presentation, diagnosis.

According to the World Health Organization, *Blastocystis hominis* infection often occurs asymptotically. Various studies have debated the pathogenic role of *Blastocystis*, with some researchers regarding it as a harmless saprophyte, while

others suggest a potential association with intestinal disorders. Transmission mainly occurs through contaminated water, food, and poor hygiene practices. Clinical manifestations of blastocystosis may include abdominal pain, diarrhea, flatulence, and nausea, although many cases remain asymptomatic. Diagnosis

is typically based on stool analysis, and advanced molecular techniques, including PCR, have enhanced diagnostic accuracy. Ongoing epidemiological research and improvements in diagnostic methods contribute to more accurate detection and effective treatment of the infection.

РЕЗЮМЕ ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И КЛИНИЧЕСКИЕ ВАРИАНТЫ БЛАСТОЦИСТОЗА (Обзор литературы)

**Каримова Мавлуда Турабджановна, Анваров Жахонгир Абралович,
Турсунбоев Курбон Рузибой угли**

Ташкентский государственный медицинский университет,
Ташкент, Узбекистан

tmainfection@mail.ru

Ключевые слова: бластоцистоз, *Blastocystis hominis*, инфекция, субтипы, эпидемиология, клинические проявления, диагностика.

Согласно данным Всемирной организации здравоохранения, инфекция *Blastocystis hominis* часто протекает бессимптомно. Патогенность *Blastocystis hominis* остаётся предметом научных дискуссий: одни исследователи рассматривают его как безвредный сапрофит, тогда как другие связывают его с развитием кишечных расстройств.

Основные факторы передачи — загрязнённая вода, пищевые продукты и несоблюдение правил личной гигиены. Клинические проявления бласто-

цистоза могут включать боль в животе, диарею, метеоризм и тошноту, однако в большинстве случаев заболевание протекает бессимптомно. Диагностика обычно основана на анализе кала, при этом внедрение современных молекулярных методов, включая ПЦР, повысило точность выявления инфекции. Эпидемиологические исследования и совершенствование диагностических подходов способствуют более точному выявлению и эффективному лечению бластоцистоза.

YDK 616.988.55-053.2.1

INFEKSION MONONUKLEOZ BILAN KASALLANGAN BOLALARDA SITOKIN STATUS HOLATI

Keldiyorova Zilola Doniyorovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

keldiyorova.zilola@bsmi.uz

Kalit soʻzlar: sitokinlar, infeksiyon mononukleoz

Dolzarbligi. Maʼlumki, immunot-sitokinlar organizmning himoya reaksiyalarini shakllantirish va tartibga solishda ishtirok yetadigan polipeptid mediatorlardir. Sitokinlar immun javobning barcha qismlarida (nospesifik chidamlilik, gumoral va hujayraviy immunitet), jumladan, immun hujayralarni farqlash, antigen taqdimoti, hujayraning faollashuvi, proliferatsiyasi va molekular adgeziyasini ifodalashda ishtirok etadi [4,5]. Sitokinnarning ahamiyati immunologiya doirasida ancha muhim, chunki ular gemopoezda, patologiya rivojlanishida va boshqalarda muhim rol oʻynaydi [3]. Immunotsitokinlar konsentratsiyasini oʻrganish immunokompetentli hujayralar turli formalari hamda, ularning funksional aktivligi toʻgʻrisida ishonchli maʼlumot olishga, organizmdagi yalligʻlanish reaksiyalarining davomiyligi va darajasi, uning boshqa tizimli darajaga oʻtishiga, uning boshqa tizimli darajaga va oqibatiga oʻtishiga, T-xelperlarning 1–2-chi tiplarining oʻzaro bogʻliqligi va nisbatini aniqlashga koʻmaklashadi [1,6]. Immunotsitokinlar statusini oʻrganish, ularning sonini diagnostik test-sistem IFT azmoishi immun tizimi faktorlarini oʻrganish hamda olin-

gan maʼlumotlar sogʻliqni saqlash tizimiga ishlatish maqsadga muvofiqdir [2,9].

Bugungi kunda Epshteyn-Barr virusining bir qator xavfli oʻsmalar (Burkit limfomasi va nazofaringial karsinoma), autoimmun kasalliklar (tizimli qizil boʻricha, revmatoid artritis), surunkali gepatit, uveit, nerv sistemasi kasalliklari (ensefalit, meningit, mielit va poliradikulonevropatiya), surunkali charchoq sindromi, shuningdek, OIV bilan kasallangan bemorlarda bir qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab boʻlishi isbotlangan [7,8]. Epshteyn-Barr virusining uzoq muddatli replikatsiyasi va ikkilamchi immun tanqisligini induksiya qilish qobiliyati, yuqumli kasalliklarga chalinish, bolalarning uzoq muddatli va tez-tez kasallanuvchi bolalar guruhiga qoʻshilishiga sabab boʻlishi isbotlangan [10].

Infeksiyon mononukleoz patogenezida sitokinnarning ahamiyati yetarlicha oʻrganilmagan. Adabiyotlardagi mavjud maʼlumotlar esa toʻliq emas va faqatgina EBV bilan bogʻliq [1,3]. Virusga qarshi himoyalashda immun reaksiyaning ikki shakli orasidagi muvozanat muhim rol oʻynaydi: hujayraviy immun javobni taʼminlovchi, makrofaglarni faollashtiruvchi va IFN- γ , IL-2, TNF- α ishlab

chiqaruvchi 1 tip T-xelper shakli, shuningdek, V-limfotsitlarni aktivlovchi va TL-4, IL-6, IL-10 ishlab chiqaruvchi hamda gumoral immun javob ta'sir qiluvchi 2 tip T-xelper shakli [5,7].

Tadqiqot maqsadi. Yuqoridagilarni hisobga olib, biz qon zardobidagi sitokinlarning: T-limfotsitlarning IL-2 va IL-6-aktivatorlari va immun yallig'lanish regulyatorlari, IL-8 - «immun» yallig'lanishgacha bo'lgan dastlabki mediatorlardan biri, adgeziyalangan molekulalar ekspressiyasini indutsirlovchi xemoatraktant kabilarning tarkibini o'rganib chiqdik.

Hujayraviy (Th1) yoki gumoral (Th2) immun javob ustunligini baholash maqsadida, Th1 va Th2-limfotsitlarning asosiy markerlari bo'lgan IL-2, IL-6 va IL-8 miqdori sitokinlarning oppozitsion markazlari darajasini o'rgandik. Biz o'rgangan mediatorlar dinamikasi ilmiy tadqiqotlarda deyarli o'rganilmagan.

Materiallar va tadqiqot usullari. O'rganilgan sitokinlar miqdorini taqqoslash uchun sog'lom bolalar guruhida (nazorat guruhi) bir turdagi reaktivlardan foydalanib tekshirilgan sitokin statusni o'rganish natijalaridan foydalandik («Sitokin» MChJ, O'zbekiston). Olingan natijalar adabiyotlarda keltirilgan, ushbu kompaniyaning reaktivlari yordamida olingan tekshirish natijalaridan kam farq qildi. Bemorlarning yoshi va jinsi sog'lom va infeksiyon mononukleoz bilan kasallangan bolalarda addekvat edi. Sitokin guruhi kasallikning o'tkir va sog'ayish davrida o'rganildi. Tekshirishlar orasidagi vaqt har bir bemorda 13-14 kun tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari. Infeksiyon mononukleoz bilan kasallangan bemorlar

zardobida IL-2 ko'rsatkichlari natijalari. To'g'ridan-to'g'ri proliferativ ta'sir IgM, G, A sintezini rag'batlantiruvchi hamda 0-limfotsitlarni ishlab chiqaradigan Th1 hujayralar proliferatsiyasining induksiyasi bilan bog'liq. Samaradorlik effektor hujayralar NK- hujayralar, sitotoksik CD8+, monotsitlar, trombositlar, eozinofillar ekspansiyasi bilan bog'liq. Yuqumli jarayon davomida sitokin javob faollashadi, dastlab qo'zg'atuvchi kirgan joyda tabiiy rezistentlik mexanizmlarni va agar u samarasiz bo'lsa, tizimli mexanizmlarni aktivlaydi, IL-2 T-limfotsitlar membranasida bo'lmaydi, biroq T-hujayralar aktivlashganda paydo bo'ladi. Shunday qilib, IL-2, T va NK hujayralarning proliferatsiyasini stimullaydi, NK-hujayralarning litik aktivligini faollashtiradi, shuningdek LAK sistemasi hujayralarini indutsirlaydi. Bundan tashqari, IL-2, IFN-a sintezining asosiy induktori sifatida T-limfotsitlar sekresiyasini kuchaytiradi, immun tolerantlik rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va aktivlashgan T-limfotsitlar apoptozini oldini oladi. IL-2 va IFN-gamma neotransformatsiyalashgan hujayralar proliferatsiyasining oldini olishga qaratilgan, effektor immunologik mexanizmlarni hosil qiladi. IL-2 genini yo'qotish T-hujayralar proliferatsiyasini keskin pasayishiga va T-limfotsitlarining erta apoptoziga olib keladi.

Interleykin-2 (IL-2) - infeksiyaga qarshi himoyaning o'ziga xos immunoregulyatori bo'lib, sitokin tarmog'ining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanib, immunoaktivlikni amalga oshirish davomida hujayralar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning barcha bosqichini ta'minlaydi.

IL-2 ning immunotrop aktivligiga

yuqumli kasalliklarda kuzatiladigan immun tanqisligini korreksiyalovchi omil sifatida qarash kerak. Infekzion mononukleoz avj olgan davrda bemorlarning asosiy guruhida IL-2 ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, pasayish tendensiyasi aniqlandi ($30,2 \pm 3,6$ pg/ml $33,0 \pm 2,0$ pg/ml, $r > 0,05$) (3.5-jadval). Keyinchalik dinamik kuzatuvlar (rekonvalessensiya davrida) ushbu sitokinlar konsentratsiyasi keskin (1,6 martaga) ortadi va $50,3 \pm 9,2$ pg/

ml teng bo'ldi ($r < 0,001$). Shu bilan birga, uning miqdori nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan ham oshib ketdi ($r < 0,01$).

Infekzion mononukleozning o'tkir davrida bemorlarda aniqlangan IL-2 miqdoridagi farqlar ahamiyatsiz edi ($r > 0,05$). Shu bilan birga, EBV bilan og'rikan bemorlarda IL-2 minimal miqdorda bo'lishini aniqladik. U sog'lom bolalarga nisbatan past darajada bo'lib $28,7 \pm 4,3$ pg/mlni tashkil etdi ($r > 0,05$).

1-jadval

Infekzion mononukleozga chalingan bolalarda kasallik bosqichiga qarab qon zardobdagi IL-2 darajasi, ($M \pm m$, LQ-Me-UQ, min-max, pg/ml)

| Kasallik bosqichi | Nazorat guruhi (n=22) | Asosiy guruh (n=22) | Farqlar ishonchliligi |
|----------------------------|---|---|-----------------------|
| O'tkir bosqich | $33,0 \pm 2,0$ 31,0-34,0-34,0 30,0-36,0 | $30,2 \pm 3,6$ 18,0-31,0 -37,0 30,0-34,0 | $> 0,05$ |
| Rekonvalessensiya bosqichi | | $50,3 \pm 9,2^*$ 35,0-49,0-90,0 38,0-55,0 | $> 0,05$ |

Izoh: nazorat guruhidan olingan ko'rsatkichlarga nisbatan farq $r < 0,05$ $r < 0,01^{**}$, $r < 0,00^{***}$

Biz kasallikning kechki, shuningdek, erta bosqichlarida IL-2 darajasini tahlil qildik va sezilarli farqlarni aniqlamadik ($r > 0,05$). Biroq, barcha nazorat ostidagi bemorlar guruhida, kasallik bosqichiga qarab IL-2 mediatorlari sekresiyasining dinamik ortib borganligini aniqladik ($r < 0,01$). Kasallikning erta bosqichida infekzion mononukleozli bolalarda IL-2-miqdorining kamayishi CD4⁺- hujayralari aktivligining pastligi bilan bog'liq, kasallikning o'tkir davrida ushbu sitokin ishlab chiqarilishining buzilishi, ehtimol Th1 subpopulyatsiyasidagi o'zgarish va Th2-tipdagi immun javobning rivojlanishidan darak beradi.

Rekonvalessensiya davrida IL-2 miqdorining ko'payishi, Th2 immun javobning Th1 tipdagi immun javobga o'tishini ko'rsatadi va bu bemorlarda ijobiy dinamik o'zgarishlar rivojlanayotganligini taxmin qilishimiz mumkin.

Infekzion mononukleoz bilan kasallangan bemor bolalar qon zardobida IL-6 ko'rsatkichlari natijalari. IL-6 B-hujayralar differensirovkasining asosiy omili bo'lib, B limfotsitlarning antitela ishlab chiqaruvchi hujayralarga aylanishiga hissa qo'shadi. IL-6, yalig'lanishning o'tkir fazasidagi oqsillarning jigarda sintezini, tana haroratining ko'tarilishini indutsiraydi, balki shun-

ing uchun (shuningdek, IL-1 va TNF-alfa ham) ham yallig'lanish sitokinlariga kiritilgan bo'lishi mumkin. IL-6 miqdorining oshishi ko'plab patologik jarayonlarda, shu jumladan, autoimmun kasalliklarda kuzatiladi. "OIV-infitsirlangan bemorlarda B-limfotsitlar TNF-alfa i IL-6 miqdori ko'payishini stimullaydi. Turli atopik jarayonlarda qon plazmasida IL-6 ning yuqori darajasi aniqlanganligi haqida dalillar mavjud.

Yallig'lanish jarayonida TNF-alfa, IL-1 i IL-6 kabi sitokinlar ketma-ket ajralib chiqadi. So'ngra IL-6, TNF-alfa va IL-1 sekresiyasini tormozlab, jigar tomonidan yallig'lanishning o'tkir fazasidagi oqsillar ishlab chiqarishini va gipotalamus-gipofiz-buyrak usti tizimini faollashtiradi va yallig'lanish jarayonini tartibga soladi. Shu ma'noda IL-6ni yallig'lanish va yallig'lanishga qarshi sitokini deb baholash mumkin. U nafaqat immun tizim hujayralari, balki immun funksiyaga ega bo'lgan yordamchi hujayralar (monotsitlar, makrofaglar, limfotsitlar, endoteliotsitlar, astrotsitlar va mikroglial hujayralar) tomonidan ham ishlab chiqariladi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, IL-6 ishlab chiqarilishining rag'batlantirilishi ko'pincha infeksiyalar, jumladan viruslar, o'ta sezgirlikning immun bosqichi va autoimmun kasalliklar bilan bog'liq. IL-6 infeksiyon mononukleozda tez-tez kuzatiladigan isitma va leykotsitoz natijasida to'qimalar shikastlanishining klinik va laborator belgilarining asosiy mediatorlaridan biri hisoblanadi.

Infeksion mononukleoz kasalligining o'tkir davrida, asosiy guruh bemorlar qon zardobida IL-6 darajasi stastistik jihatdan 9,6 martaga oshishi kuzatildi ($8,4 \pm 0,7$ pg/ml dan $81,1 \pm 26,2$ pg/ml gacha, $r < 0,001$) va rekonvalesensiya davrida 2,8 martaga kamayishi aniqlandi. Shu bilan birga, zardobdagi sitokin miqdori nazoratdagi ko'rsatkichlardan oshib ketdi ($26,2 \pm 10,6$ pg/ml qarshi $8,4 \pm 0,7$ pg/ml, $r < 0,05$).

EBV ta'sirida IL-6 ko'rsatkichlarida ma'lum dinamik farqlar aniqlandi. Shunday qilib, qo'zg'atuvchisi EBV bo'lgan infeksiyon mononukleoz bilan og'rigan bemorlarda kasallikning o'tkir bosqichida IL-6 konsentratsiyasi 13 martaga ko'payishi ($112,7 \pm 19,6$ pg/ml, sog'lom bemorlarda $8,4 \pm 0,7$ pg/ml $r < 0,001$) aniqlandi. Ko'rinib turibdiki, infeksiyon mononukleoz kasalligining o'tkir davrida bemor bolalarning qon zardobidagi IL-6 miqdori qo'zg'atuvchi turiga bog'liq bo'ldi. Epshteyn-Barr virusi etiologik guruhlar o'rtasidagi ko'rsatkichlar orasidagi farq statistik jihatdan ishonarli bo'lib ($r < 0,05-0,01$), eng yuqori ko'rsatkich Epshteyn-Bar virusli mononukleoz bilan kasallangan bemorlar guruhida aniqlandi.

Infeksion mononukleoz bilan kasallangan bemorlar dinamik kuzatilganda IL-6 darajasi sezilarli darajada kamaydi (3,1 baravar), ammo sog'lom bolalar darajasiga tenglashmadi ($r < 0,05$). Turli xil etiologik omilga ega bo'lgan rekonvalesentlarda sitokin tarkibi tahlil qilinganda, bu interleykin miqdorining notekis intensivlikda pasayishi qayd etildi.

**EBV etiologiyali infeksiyon mononukleozzga chalingan
bolalarda kasallik bosqichiga qarab qon zardobdagi IL-6 darajasi,
($M \pm m$, LQ-Me-UQ, min-max, pg/ml)**

| Kasallik bosqichi | Nazorat guruhi | Asosiy guruh | Farqlar ishonchliligi |
|-----------------------------|------------------------|--|---|
| O'tkir bosqich | 8,4±0,7 8,0-9,0-9,0 | 81,1±26,2*** 54,0-71,0-100,0 43,0-156,0 | 3-4>0,05 1-2, 1-3<0,05 1-4,2-3<0,05 2-4<0,01 |
| Rekonvales-sensiya bosqichi | 7,0-9,0 | 26,2±10,6* 10,0-25,0-35,0 8,0-47,0 | 1-3, 1-4>0,05 1-2, 2-3<0,05 1-4, 3-4<0,001 |

*Izoh: nazorat guruhidan olingan ko'rsatkichlarga nisbatan farq ($r < 0.05$, $r < 0,01^{**}$, $r < 0,001$ - $***r < 0,01^{**}$, $r < 0,001$ - $***$)*

Shunday qilib, EBV bilan og'rigan bemorlarda uning miqdori 10,9 marta-ga kamayganligi kuzatildi va (10,3±1,1 pg/ml) ni tashkil etdi ($r < 0,001$), lekin nazorat guruhiga nisbatan balandligi-cha saqlanib qoldi ($r < 0,05$). "Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, infeksiyon mononukleozda, virus organizmga kirganda, 2-tip T-xelperlar tomonidan ishlab chiqarilgan IL-6 faollashadi, bu gumoral immunitetning faollashganligidan darak berishi mumkin. Kasallik dinamikasida

interleykin-6 ning pasayishi kuzatildi, bu olib borilgan davo choralari fonida Th2 limfotsitlar supressiyasini ko'rsatadi.

Infeksiyon mononukleoz klinik belgilari va IL-6 miqdori o'rtasida to'g'ri-dan-to'g'ri o'rtacha korrelyatsion bog'liqlik ham aniqlandi ($g = 0,39$, $r < 0,05$). Shunday qilib, kasallikning birinchi haftasida (1-3 kun) bemorlarda ko'proq quyidagi belgilar kuzatildi: gipertermiya, tonsillit, burun orqali nafas olishning buzilishi, gepatosplenomegaliya.

**EBV etiologiyali infeksiyon mononukleozga chalingan bolalarda kasallik
bosqichiga qarab zardobdagi IL-2/IL-6 darajasi, (pg/ml)**

| Kasallik bosqichi | Nazorat guruhi (22) | Asosiy guruh (n=22) | Farqlar ishonchliligi |
|-----------------------------|------------------------|------------------------|---|
| O'tkir bosqich | | 0,42±0,14** | 1-3,3-4>0,05 3, 2-4<0,05 1-2, 1-4<0,01 |
| Rekonvales-sensiya bosqichi | 3,89±0,14 | 2,81±1,42 | 1-3, 3-4>0,05 1-2, 2-3<0,05 1-4>0,01 1-4>0,001 |
| R | | <0,001 | |

*Izoh: nazorat guruhidan olingan ko'rsatkichlarga nisbatan farq $r < 0,05$ $r < 0,01^{**}$, $r < 0,001$ - $***$*

Sitokin sintezida aniqlangan o'zgarishlar IL-2/IL-6 koeffitsientiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi (3-jadval). Infektsion mononukleoz bilan kasallangan barcha bemorlar guruhida uning pasayishi qayd etildi (ayniqsa, EBV infeksiyasida), bu gumoral mexanizmlarning ustunligini ko'rsatdi va T-xelperlarning

Th2 subpopulyatsiyasining Th2 tipdagi immun javob rivojlanishi mumkin. Uning miqdori kasallik dinamikasida $0,42 \pm 0,14$ dan $2,81 \pm 1,42$ gacha ortdi. EBV-infeksiyaga chalingan bemorlar guruhida uning ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi ko'rsatkichlarga yaqinlashdi ($4,64 \pm 0,95$, $r > 0,05$).

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Келдиёрова З.Д., Мирзаева М.Р., Нарзуллаев Н.У. Клинико-иммунологическая оценка эффективности индуктора интерферона у больных детей инфекционным мононуклеозом // Проблемы биологии и медицины. – Самарканд, 2022. №5 (139). С 145-148.
2. Гордеев А. В., Савина О. Г., Бениова С. Н., Черникова А. А. Этиология, иммунологические варианты инфекционного мононуклеоза и способов их коррекции // Экспериментальная и клиническая фармакология. - 2011. - Т. 74. - № 11. - С. 29-32.
3. Keldiyorova Z.D., Narzullaev N.U., Mirzoeva M.R., Immunological disorders in infectious mononucleosis in children // Neuro Quantology. London, - 2022. – Vol. 20. - P.9600-9602
4. Белозеров Е.С. Иммунодефициты и до нозологические формы иммуносупрессии / Е. С. Белозеров, Н. К. Шагшарданов, Е. И. Змушко. - Семипалатинск, 2008. - С. 141-163.
5. Келдиёрова З.Д. Иммунологические особенности инфекционного мононуклеоза Эпштейна-Барр-вирусной этиологии у детей // Тиббиётда янги кун. – Бухоро, 2021. - №2 (34). - С.231-234.
6. Келдиёрова З.Д. Иммунологические особенности инфекционного мононуклеоза у детей // Тиббиётда янги кун. – Бухоро, 2022. - №2(40). - С.215-219 .
7. Keldiyorova Z.D., Ostanova G.S., Mirzoeva M.R., Narzullaev N.U. State of the immune system in children with infectious mononucleosis // Тиббиётда янги кун. – Бухоро, 2021. - №1 (33). - С.283-289 .
8. Келдиёрова З. Д. Состояние иммунной системы при инфекционном мононуклеозе у детей. // Медицина и инновации 3(7). Август Тошкент, 2022 г. С351-363.
9. Keldiyorova Z.D. Aslanova M.R. The State of cellular immunity in children with infectious mononucleosis // Texas Journal of Medical Science, USA – 2022, Volume 15. P 24-26. (Impact Factor: 5.926.)
10. Keldiyorova Z.D. Immunological features of infectious mononucleosis epstein-barr virus etiology in children // World medicine journal. Polsha, 2021. - N1 (1). – P. 371-375

РЕЗЮМЕ ЦИТОКИНОВЫЙ СТАТУС У ДЕТЕЙ С ИНФЕКЦИОННЫМ МОНОНУКЛЕОЗОМ

Келдиёрова Зилола Дониёровна

*Бухарский государственный
медицинский институт имени
Абу Али ибн Сино*

keldiyorova.zilola@bsmi.uz

Ключевые слова: цитокины, инфекционный мононуклеоз.

Продукция и секреция цитокинов являются одними из начальных процессов, связанных с взаимодействием микроорганизмов и макрофагов. Этот ранний неспецифический ответ на инфекцию важен по нескольким причинам: он развивается очень быстро из-за отсутствия необходимости накопления клона клеток, реагирующих на определенный антиген. В то же время ранний цитокиновый ответ влияет на специфический иммунный ответ. Изучение уровня цитокинов дает информацию о функциональной активности различных клеток иммунного комплемента, выраженности воспалительного процесса, эффективности лечения и необходимости иммунокоррекции в зависимости от этиологического фактора инфекционного мононуклеоза.

SUMMARY CYTOKINE STATUS IN CHILDREN WITH INFECTIOUS MONONUCLEOSIS

Keldiyorova Zilola Doniyorovna

*Bukhara State Medical Institute named
after Abu Ali ibn Sino*

keldiyorova.zilola@bsmi.uz

Keywords: cytokines, infectious mononucleosis.

Cytokine production and cytokine secretion are among the initial processes associated with the interaction between microorganisms and macrophages. This early nonspecific response to infection is important for several reasons: it develops very quickly due to the lack of the need to accumulate a clone of cells that respond to a specific antigen. At the same time, the early cytokine response affects the specific immune response. The study of cytokine levels provides information about the functional activity of various immune complement cells, the severity of the inflammatory process, the effectiveness of treatment, and the need for immunocorrection, depending on the etiological factor of infectious mononucleosis.

УДК 547.963.32:577.112.083

РИБОСОМ-ИНАКТИВИРУЮЩИЙ БЕЛОК (RIP) СЕМЯН ЧЕРНУШКИ ПОСЕВНОЙ *NIGELLA SATIVA*

Корабоева Барно Ботирали кизи, Орипова Муножат Жалолдиновна,
Ощепкова Юлия Игоревна

Институт биоорганической химии им. акад. А.С. Садыкова АН РУз,
ул. Мирзо Улугбека, 83, Ташкент, 100125 Узбекистан

joshepkova05@rambler.ru

Ключевые слова: чернушка посевная *Nigella sativa*, рибосом инактивирующие белки, активный сайт, домен.

Актуальность. Растения владеют некоторыми специфическими метаболическими путями для синтеза большого количества ценных белков, и эти белки можно использовать для профилактики и лечения заболеваний [1]. Было высказано предположение, что такие белки, инактивирующие рибосомы (RIP) из растений придают устойчивость к болезням [2]. RIPs могут каталитически инактивировать эукариотические рибосомы, которые ингибируют синтез белка при трансляции [3].

Белки, инактивирующие рибосомы (RIP), относятся к классу ферментов, обнаруженных в растениях, грибах, водорослях и бактериях. RIP проявляют активность рРНК N-β-гликозилазы, которая приводит к расщеплению остатка аденина в консервативном сайте 28S рРНК [4]. Расщепление этой единственной N-гликозидной связи необратимо и мешает ассоциации между факторами элонгации и рибосомой, вызывая ингибирование синтеза белка [5].

Доказано, что различные RIP проявляют разную биологическую активность, например, противоопухолевую, антибактериальную, противогрибковую и противовирусную активность широкого спектра [6-10]. В сельском хозяйстве *in vitro* и на трансгенных растениях продемонстрировано, что RIPs связаны с защитой с помощью противогрибковых, антибактериальных, противовирусных и инсектицидных действий [11-14].

Несмотря на то, что изучению RIPs в последнее время уделяется достаточно много внимания, изучение присутствия RIPs в семенах чернушки посевной *Nigella sativa* до настоящего времени не проводилось.

Цель исследования. Выделение RIPs из семян чернушки посевной *Nigella sativa*, произрастающей на территории Республики Узбекистан и изучение физико-химических и биологических свойств.

Материалы и методы исследования.

Экстракция RIPs. Предварительно

измельченные семена обезжиривали над петролейным эфиром в аппарате Сокслета. Обезжиренные семена высушивали при комнатной температуре и экстрагировали буферной смесью 0,005 М NaH_2PO_4 , pH=7,5 дополнительно содержащей 0,28 М NaCl (соотношение сырье: буфер 1:10). Экстракцию проводили в течение ночи при постоянном перемешивании на магнитной мешалке при 4°C. Экстракт центрифугировали в течение 30 минут при 6000 об/мин, супернатант отделяли и лиофильно высушивали.

Ионообменная хроматография экстракта. Полученный экстракт растворяли в 0,025 М фосфатном буфере и разделяли на колонке с SP-Sephadex G-25 (16x3,5 см), уравновешенной 0,025 М фосфатным буфером (pH=7) при скорости 0,5 мл/мин. Фракции, не связавшиеся с SP-Sephadex G-25, элюировали тем же буфером. Детекцию белков осуществляли при 280 нм.

Гель-фильтрация белков. 1-фракцию, полученную после ионообменной хроматографии, разделяли путем гель-фильтрации на колонке Sephacryl S-200, уравновешенной 0,025 М фосфатным буфером (pH=7), дополнительно содержащим 50 mM NaCl. Скорость элюции 0,5 мл/мин. Детекцию белков осуществляли при 280 нм.

Электрофорез белков в ПААГ. Электрофорез белков проводили в 12% ПААГ в присутствии ДСН по методу Лэммли [10].

Цитотоксическая активность выделенных белков. Цитотоксичность оценивали биохимически с помощью МТТ-метода. Для определения цито-

токсического действия клетки Hela рассеивали в 96-луночные планшеты в количестве 20-30 тыс. клеток/мл в 100 мкл среды RPMI 1640, содержащий L-глутамин, антибиотики, 10% сыворотки эмбриона телят и культивировали при температуре 37°C в CO_2 – инкубаторе. Через сутки вводили вещества в дозах 100, 10 и 1 мкг/мл по белку на 100 мкл среды, культивировали клетки в течение 24 часов и далее вводили в клетки МТТ [3-(4,5-диметилтиазол-2-ил)-2,5-дифенил-2Н-тетразолиум бромид] для выявления живых клеток. После 3х часовой инкубации среду осторожно сливали, добавляли ДМСО и инкубировали 20 мин., затем измеряли оптическую плотность раствора при длине волны 620 нм.

Результаты и обсуждение.

Из предварительно измельченных и обезжиренных семян 0,005 М фосфатным буфером (pH=7,5), дополнительно содержащим 0,28 М NaCl, была проведена экстракция RIPs. С применением ионообменной хроматографии было получено 3 фракции, в которых были измерены их спектры поглощения в ультрафиолетовой области на спектрофотометре для проверки на наличие белков. Оказалось, что 2 и 3 фракция не обладают характерными для белков спектрами поглощения, т.е. являются небелковыми.

Далее с применением гель-фильтрации на сорбенте Sephacryl S-200 получено 4 фракции, которые были охарактеризованы электрофоретически и было показано, что экстракт и 1 фракция, полученная после разделения ионообменной хроматогра-

Тадқиқот усуллари. Глизимеднинг ўткир захарлилиги жинсий етук оқ сичқонлар, каламушлар ва қуёнларда ўрганилди. Кемирувчиларда ўтказилган тажрибаларда хайвонлар тасодифий равишда ҳар бири 6 тадан гуруҳларга ажратилди. Рандомизациянинг мақбуллиги мезони лаборатория хайвонларида касаллик белгиларининг йўқлиги, жинс ва тана вазни бўйича гуруҳларнинг гомогенлиги ($\pm 20\%$) билан белгиланди. Оқ сичқонлар ва каламушларда глизимед 500 дан 8000 мг/кг гача бўлган дозаларда

металл зонд ёрдамида меъда ичига юборилди. Ўрганилаётган экстрактнинг катта дозаларига эришиш учун ҳайвонларга 30 дақиқалик интервал билан 2-3 соат давомида (6 мартагача такрорий юбориш) қайта-қайта киритилди. Назорат гуруҳидаги ҳайвонларга аналогик усуллар билан тегишли ҳажмдаги дистилланган сув (6 инъекциягача) юборилди. Қуёнларда глизимеднинг ўткир заҳарлилигини ўрганишда 2,2-2,8 кг оғирликдаги Шиншилла насли қуёнларидан фойдаланилди, уларнинг ҳар бири глизимедни 2000 дан 10000 мг / кг гача бўлган дозаларда бир марта меъда ичига қабул қилди. Назорат гуруҳининг қуёнлари худди шундай схемада аналогик ҳажмдаги дистилланган сувни қабул қилишди. Тажрибадан сўнг, кемирувчилар ҳам, қуёнлар ҳам 14 кун давомида кузатув остига олинди. Интоксикациянинг клиник белгилари, умумий ҳолати кўрсаткичлари қайд этилди. Тажриба бошланишидан олдин, шунингдек, икки ҳафта давомида ҳайвонларнинг вазни ўлчанди, озуқа ва сув сарфи ҳисоби олиб борилди.

Глизимеднинг субхроник заҳарлилиги 120-130 грамм оғирликдаги 40 та оқ каламушда ўрганилди, улар 30 кун давомида ҳар куни препаратнинг сувли эритмаларини қабул қилишди. Ҳайвонлар ҳар бир гуруҳга 10 та ҳайвондан иборат 4 та гуруҳга ажратилди: 1-гуруҳ ҳайвонлар глизимедни 25 мг/кг дозада; 2-гуруҳ бу препаратни 250 мг/кг дозада; 3-гуруҳ 500 мг/кг дозада қабул қилган; 4-гуруҳ назорат гуруҳи сифатида хизмат қилди.

Тадқиқот бошланишидан олдин ва эксперимент давомида (ўткир ва

субхроник тажриба), ўрганилаётган воситани ҳар куни меъда ичига юборилгандан кейин эҳтимолий интоксикациянинг клиник белгилари қайд этиб борилди: ҳайвонларнинг умумий аҳволи, озуқа ва сув истеъмоли, ҳар 3 кунда тана вазнининг ўзгариши, хулқ-атвор хусусиятлари, жисмоний фаоллик, таъсиротларга жавоб реакцияси, нафас олиш частотаси ва чуқурлиги, жун, тери қопламалари ва шиллиқ пардаларнинг ҳолати, нажас массалари баҳолаб борилди. Барча лаборатория ҳайвонлари бутун эксперимент давомида стандарт вивариум шароитида сақланишди ва тўлиқ лаборатория овқатланиш рациониди, сувдан эркин фойдаланиш имконияти билан бўлдилар. Охирги муолажадан бир кун ўтгач, барча гуруҳлардаги ҳайвонларнинг дум венасидан таҳлил учун қон олинди ва ВС-20s гематологик анализаторида (Mindray, Хитой) қон кўрсаткичлари аниқланди. Кейин, енгил наркоз остида каламушларда бир моментли декапитация йўли билан биокимёвий текширувлар учун қон йиғилди, ички аъзолари эса макроскопик текширувдан сўнг морфологик тадқиқотлар учун 10% формалин эритмасига фиксация қилинди. ВА-88А биокимёвий анализаторида (Mindray, Хитой) қон зардобидидаги АсАТ, АлАТ, ИФ ва ГГТ фаоллиги; глюкоза, умумий оксил ва умумий билирубин (CYPRESS Diagnostics фирмаси реактив тўпламлари, Белгия) таркиби аниқланди.

Заҳарлилик кўрсаткичлари бўлиб хизмат қилди: ҳайвонларнинг хатти-ҳаракати, яшовчанлиги, ўлим вақти, интоксикация белгиларининг пайдо бўлиши, тана вазнининг дина-

микаси, қоннинг гематологик ва биохимёвий кўрсаткичлари.

Барча экспериментлар «Экспериментал ёки бошқа илмий мақсадларда фойдаланиладиган умуртқали ҳайвонларни ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Европа конвенцияси (Страсбург, 1986) талабларига мувофиқ ва Россия Федерациясининг «Ҳайвонларга шафқатсиз муносабатда бўлишдан ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Федерал қонунига мувофиқ амалга оширилди (01.01.1997).

Тадқиқот натижалари Biostat 2009 дастурий пакети ёрдамида статистик қайта ишланди. Маълумотлар ўртача қиймат (M) ва ўртача қийматнинг стандарт хатоси (m) кўринишида тақдим этилди. Тадқиқот гуруҳлари орасидаги фарқ ҳақидаги статистик гипотезаларни текшириш учун Стъюдент мезонларидан фойдаланилди. 95% ёки ундан ортиқ эҳтимоллик даражасидаги фарқ статистик жиҳатдан ишончли ўзгариш сифатида қабул қилинди ($p < 0,05$).

Тажрибалар натижалари шуни кўрсатдики, барча лаборатория ҳайвонларини 14 кун давомида кузатганда, ўлим ҳолатлари қайд этилмади. Барча ҳайвонлар: каламушлар, сичқонлар ва қуёнлар тирик. Барча гуруҳлардаги тажриба ҳайвонларининг фаоллиги меъёрада. Ҳаракатларни мувофиқлаштириш бузилмади. Рефлектор ҳаракатлар ўзгармади. Тери қопламалари тоза, жунни ялтираган, сезгирлик мавжуд. Бош, танаси ва оёқ-қўлларидаги жун қопламаларининг тушиши ёки бошқа шикастланишлари қайд этилмади. Табиий тешиклар атрофидаги жунларнинг ҳолати ҳам ўзгармади. Эркак ка-

ламушлар мойак халтасининг териси шикастланишсиз ва шишмаган ҳолатда. Тери паразитлари ва уларнинг ҳаётий фаолиятининг излари мавжуд эмас.

Кўз шиллиқ пардалари пушти, қараш билан қопланмаган, шишлар йўқ, нам, силлиқ, ялтироқ. Кўзлардан оқмалар мавжуд эмас. Буруннинг шиллиқ қавати пушти, ялтироқ, шишсиз нам. Бурундан оқмалар мавжуд эмас. Барча ҳайвонларда тишлар сақланиб қолган, оғиз бўшлиғининг шиллиқ қавати оч пушти рангда, яралар, шишлар, қон кетишлар ва бошқа ўзгаришлар мавжуд эмас. Озуқа истеъмоли меъёрада ва мос равишда дефекация мунтазам. Нажас шакланган, диурез мунтазам. Глизимед қабул қилингандан 14 кундан сўнг, экспериментдан четлатилган сичқонлар, каламушлар ва қуёнларнинг танаси ташқи кўздан кечирилганда, барча ҳайвонларнинг гавда тузилиши пропорционал, тўлалиги қониқарли эканлиги аниқланди. Шундан хулоса қилиш мумкинки, ўрганилаётган глизимед препаратининг ўткир заҳарлилиги мавжуд эмас. Ўлим ҳолатлари кузатилмаганлиги сабабли LD_{50} (ўртача ўлим дозаси) ни ҳисоблашнинг иложи бўлмади. Ўткир заҳарлилигини ўрганиш натижалари *glycyrhiza glabra*, *hipericum scabrum*, *ziziphora pedicellata* ва *mediazia macrophylla* доривор ўсимликлардан ажратиб олинган, тадқиқ этилган экстрактни нисбатан хавфсиз дори воситалари гуруҳига киритиш имконини берди.

Глизимеднинг турли дозаларда ошқозон ичига юборилганидан кейин субхроник заҳарлилиги (30 кун давомида) ўрганилди. Ташқи кўрик

пайтида барча каламушлар гавда тузилиши пропорционал, қоникарли озиқланишга эга эканлиги аниқланди. Табиий тешиклардан оқмалар аниқланмади. Жунлари ялтироқ, тоза кўринишга эга, соч тўкилиш соҳалари мавжуд эмас. Тишлар сақланган. Кўзга кўринадиган шиллиқ пардалар рангпар, ялтироқ. Эркакларининг жинсий аъзолари тўғри ривожланган. Оёқ ва қўллар панжаларининг деформациялари ёки шишлари йўқ. Терида ўзгаришлар, таъсирланиш, гиперемия кузатилмади.

Ўрганилаётган препаратнинг турли дозаларини олган ҳайвонлар ва плацебо олган назорат ҳайвонлари ўртасида субхроник экспериментда ўтказилган тадқиқотлар давомида тана вазни ва унинг ортишида статистик жиҳатдан муҳим фарқлар аниқланмади.

Гематологик тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатдики, каламушларда препаратни оғиз орқали қабул қилгандан кейин қон тизими томонидан токсик таъсирлар қайд этилмади.

Лаборатория ҳайвонларида препаратни турли дозаларда узоқ вақт қўлагандан сўнг, қон зардобининг биохимёвий хусусиятларида ўзгаришлар аниқланмади, бу ички аъзоларга токсик таъсир йўқлигини тасдиқлайди. Турли дозаларда глизимед юборилган ҳайвонлар ва назорат ҳайвонлари (плацебо) гуруҳлари ўртасида ички аъзоларнинг мутлақ ва нисбий вазнида статистик жиҳатдан муҳим фарқлар кузатилмади.

Глизимеднинг уч турдаги лаборатория ҳайвонларига: сичқонлар, каламушлар ва қуёнларга таъсирини ўр-

ганиш бўйича ўткир экспериментда олинган натижалар, препарат энтерал юборилганда ички аъзоларга токсик таъсир кўрсатмайди, деган хулосага келишга имкон берди.

Патологик анатомик текширувда қуйидаги натижалар қайд этилди. Кўкрак ва қорин бўшлиғида суюқлик мавжуд эмас. Кўкрак ва қорин бўшлиғи ички аъзоларининг жойлашувида бузилишлар кузатилмади. Плевра ва қорин парданинг парие-тал ва висцерал қатламлари нозик, ялтироқ, силлиқ эди. Лимфа тугунлари қулранг тусли, юмалоқ шаклда, силлиқ юзали ва зич оқимтир рангли капсулага эга. Тугунлар ўзаро ва ёндош тўқималар билан ёпишмаган. Сўлак безлари овалсимон шаклда, сарғиш рангда, ўртача зич, кесмада – донадор кўринишда.

Қалқонсимон без пушти-қизил рангда, одатдаги ўлчам ва шаклда, ўртача зич консистенцияда. Тимус тўш суягининг сописи олдида, кўкс оралиғида, ёғ тўқималари орасида ётган, рангпар, бироз пушти рангдаги силлиқ ҳосила кўринишида. Ўлчамлари ва зичлиги ўзгаришсиз.

Аорта интимаси силлиқ, ялтироқ, оқиш рангга эга. Аорта диаметри ўзгармаган. Перикард варақлари нозик, ялтироқ, силлиқ. Юракнинг ўлчами ва шакли ўзгаришсиз. Чап қоринча қисқарган ҳолатда, ўнг қоринчада тўқ қизил қуйқалар ва суюқ қон мавжуд. Юрак клапанлари нозик, ялтироқ, силлиқ. Юрак мушаклари кесмада бир хил жигарранг тусда, ўртача зичликда.

Трахея ва йирик бронхлар бўшлиғи ўзгармаган, шиллиқ қавати

ялтироқ, силлиқ, рангпар тусга эга. Ўпка ҳаволи, пайпаслаганда зичланишларсиз, оч пушти рангда.

Қизилўнгачнинг шиллиқ пардаси ялтироқ, силлиқ, рангпар тусга эга. Ошқозон одатдаги ўлчам ва шаклга эга. Озиқ моддалар билан тўлган. Ошқозоннинг шиллиқ қавати бурмали, ялтироқ, силлиқ. Йўғон ичакнинг шиллиқ қавати кулранг тусда, ялтироқ, силлиқ.

Жигарнинг шакли ва ҳажми ўзгармаган. Жигар юзаси силлиқ, бир хил тўқ қизил рангда, капсуласи юпқа, тиниқ. Кесимдаги жигар тўқимаси тўлақонли, ўртача зичликда.

Ошқозон ости беши одатдаги шакл ва ўлчамда, ўртача зичликда, оқимтир, бир оз пушти рангда, бўлакли.

Талоқ одатдаги шаклда, тўқ қизил рангда, ўртача зич консистенцияда, бурмаланган капсула билан. Кесмада талоқнинг тўқ қизил фонида майда кулранг фолликулалар кўринади.

Буйракларнинг ўлчами ва шакли ўзгармаган. Буйрак юзаси жигарранг, силлиқ, капсуласи зич, оқимтир рангда, осон ажратилади. Буйрак кесмасида пўстлоқ ва мия моддалари яққол ажралиб туради. Буйрак усти безлари овалсимон шаклда, ранги оқимтир, одатдаги ўлчам ва зичликда.

Сийдик пуфаги оз миқдордаги тиниқ сийдик билан тўлган. Сийдик пуфаги шиллиқ қавати бурмасимон, ялтироқ, оқимтир рангда.

Эркакларининг мойклари оқимтир рангда, одатдаги ўлчам ва зичликда, кесмада юзаси донадор, бир хил оч рангда. Капсуласи зич, тиниқ эмас.

Бош миянинг қаттиқ пардаси зич, оқимтир ранга эга, осон ажралади, мия моддаси билан битишмалар йўқ.

Мия моддаси одатдаги зичликда. Бош мия эгатлари ва эгриликлари яхши ифодаланган. Миянинг фронтал кесимида кулранг ва оқ моддалари аниқ ажралиб туради. Мия қоринчалари одатдаги катталиқда, кенгайишлар йўқ.

Хулоса. Шахсий тадқиқотимиз натижаларига кўра, глизимед ҳайвонларнинг физиологик ҳолатига салбий таъсир кўрсатмаслиги аниқланди.

Шундай қилиб, токсикометрия натижалари, препаратни ўткир ва субхроник қўлланилишидан кейинги даврда экспериментал ҳайвонларнинг кузатуви маълумотлари, шунингдек физиологик, биокимёвий, гематологик ва патоморфологик текширувлар маълумотлари «Глизимед» препарати деярли заҳарли бўлмаган доривор моддалар V синфига киритиш имконини беради.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Бердина Е.Л., Гапанович В.Н., Живень Г.А. и соавт. Фармакотерапевтическая эффективность инфузионного раствора реогемин в экспериментах *in vitro* и *in vivo*//Современные технологии в медицинском образовании: международная научно-практическая конференция посвящённое 100-летию Белорусского государственного университета (Минск, 1-5 ноября). -2021.
2. Каркищенко Н.Н., Каркищенко В.Н., Шустов Е.Б. Биомедицинское (доклиническое) изучение антигипоксической активности лекарственных средств.// Методические рекомендации. Москва, ФМБА России МР.21.44.- 2017.
3. Болдырева Ю.В., Лебедев И.А. Особенности антиоксидантного действия олиго пептидов в системе *in vitro* в присутствии α -токоферола и β -каротина // в сборнике: Актуальные исследования висцеральных систем в биологии и медици-

не. сборник материалов всероссийской научно-практической конференции. - 2018.

4. Буеверов А.О. Оксидативный стресс и его роль в повреждении печени// Российский журнал гастроэнтерологии, гепатологии и колопроктологии, 2002. -№4.

5. Бурых Е.А., Сергеева Е.Г. Электрическая активность мозга и кислородное обеспечение когнитивно-мнестической деятельности человека при разных уровнях гипоксии // Физиол. человека. - 2008. -Том 34, № 6.

6. Васильев К.Ю., Киселева А.А., Хаанов В.А. Влияние комбинации янтарной и глутаминовой кислот на энергетический обмен печени мышей при гипоксии // Бюллетень экспериментальной биологии и медицины. - 2009. - Том 147, № 3.

7. Власенко А. В., Корякин А. Г., Евдокимов Е. А. Высоко поточная оксигеноте-

рапия при лечении острой дыхательной недостаточности различного генеза: возможности и перспективы // Неотложная медицина. -2017. - №3.

8. Ледяйкина Л.В., Балыкова Л.А., Герасименко А.В. и соавт. Некоторые аспекты патогенеза ишемически-гипоксических поражений // Самарский научный вестник. -2015. -№ 2(11)

9. Мавланов Ш.Р., Хакимов З.З., Рахманов А.Х. Янги фармакологик фаол бирикмаларни гепато-билиар тизим фаолиятига таъсирини экспериментал ўрганиш// Ушлбий қўлланма, Тошкент. -2017.

10. Fu Q., Colgan S.P., Shelley C.S. Hypoxia: the force that drives chronic kidney disease // Clin. Med. Res.- 2016

11. Hakimov Z.Z., Rahmanov A.X., Kurbanniyozova Y.A. Influence of Mix of Medicinal Plants on the Course of Different Types of Hypoxia // American Journal of Medicine and Medical Sciences 2022, 12(3)

РЕЗЮМЕ МЕТОДЫ ДОКЛИНИЧЕСКИ ТОКСИКОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ГЛИЗИМИРОВАННОЙ ФИТОКОМПОЗИЦИИ Курбанниёзова Юлдуз Аллабергановна

Ургенчский филиал Ташкентской
медицинской академии

yulduz271191@gmail.com

Ключевые слова: гипоксия, глизимед, острое и хроническое отравление, экспериментальные животные.

Сумма экстрактов лекарственных растений условно называется глизимедом. Результаты острых и хронических экспериментов по воздействию Глизимеда на трех видах лабораторных животных: мышах, крысах и кроликах позволили сделать вывод, что препарат не оказывает токсического действия на внутренние органы при энтеральном введении.

SUMMARY METHODS OF PRECLINICAL TOXICOLOGICAL STUDY OF GLYZIMED PHYTOCOMPOSITION Kurbanniyozova Yulduz Allaberganovna

Urgench branch of the Tashkent Medical
Academy

yulduz271191@gmail.com

Key words: hypoxia, glizimed, acute and chronic poisoning, research animals.

The sum of medicinal plant extracts is conditionally called glizimed. The results of acute and chronic experiments on the effect of Glizimed on three types of laboratory animals: mice, rats and rabbits allowed us to conclude that the drug does not have a toxic effect on internal organs when administered enterally.

УДК 616.8;577.2.04;612.8

ГИПОТИРЕОЗ КАСАЛЛИГИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН КАЛАМУШЛАР ҲОЛАТЛАРИ ВА БИОКИМЁВИЙ ЎЗГАРИШЛАРИНИ ВА БОШ МИЯ СИНАПТОСОМАСИДАГИ КАЛЬЦИЙ МИҚДОРINI АНИҚЛАШ

Қозоқов Ислон Бахтиярович, Дедабоев Жобир Исмоил ўғли,
Хошимов Нозим Нумонжонович

Ўзбекистон Миллий университети ҳузуридаги Биофизика ва биокимё институти.
Тошкент, Ўзбекистон

Khoshimovn@gmail.com

Калит сўзлар: Синаптосома, когнитив ҳолатлар, Гипотиреоз касаллиги, биокимёвий кўрсаткичлар, гормонлар.

Ушбу тадқиқотда биз 21 кун давомида оғиз орқали оқ зоциз еркак каламушларга мерказолил (2,5 мг / 100 г) юбориш орқали гипотиреоз экспериментал моделини ишлаб чиқдик ва синаб кўрдик. Гипотиреознинг пайдо бўлиши клиник белгиларни (иштаҳанинг пасайиши, летаргия, ич қотиши, соч тўкилиши) кузатиш ва McGraw шкаласи бўйича таҳлил қилинган Очиқ майдон тести ёрдамида ҳатти-ҳаракатларни баҳолаш билан тасдиқланган. Гипотиреоз каламушлар назорат билан солиштирганда локомотор ва кашфиёт ҳатти-ҳаракатларнинг сезиларли даражада пасайишини кўрсатди, бу марказий асаб тизимининг фаолияти сусайганлигини кўрсатади. Модел каламушларда биокимёвий кўрсаткичларнинг ўзгариши ва бош миЯ синаптосомаларида кальций миқдорининг сусайиши ҳам аниқланди. Ушбу натижалар гипотиреоз касаллиги шароитида биологик фаол бирикмаларнинг бош миЯ синаптосома функциясига таъсирини кейинги тадқиқотлар учун моделнинг

ишончилигини қўллаб-қувватлайди.

Кириш. Гипотиреоз - бу қалқонсимон без гормонларининг етарли даражада ишлаб чиқарилмаслиги билан тавсифланган кенг тарқалган эндокрин касаллик бўлиб, бу чуқур метаболитик, нейрофизиологик ва ҳатти-ҳаракатларнинг бузилишига олиб келади. Марказий нерв тизимида қалқонсимон беЗи гормонларининг етишмовчилиги нейромедиаторлар алмашинувига, синаптик пластиккага ва нейронларнинг қўзғалувчанлигига таъсир қилади, бу эса когнитив ва ҳатти-ҳаракат функцияларининг бузилишига олиб келади [1].

Ҳайвонларда ишончли гипотиреоз моделини яратиш билан боғлиқ миЯ дисфункцияси асосидаги молекуляр ва ҳужайра механизмларини ўрганишда қулай модел ҳисобланади. Қалқонсимон без гормонлар синтезининг кучли ингибитори бўлган мерказолилни юбориш орқали кемирувчиларда гипотиреозни қўзғатишнинг яхши тасдиқланган усули ҳисобланади [2,3].

Ушбу тадқиқотнинг мақсади синаптосомал фаолликларда юзага келадиган ўзгаришларни тадқиқ қилиш мақсадида каламушларда экспериментал гипотиреоз моделини ишлаб чиқиш ва тасдиқлашдан иборат.

МАТЕРИАЛ ВА МЕТОДЛАР

Гипотиреоз моделини чақириш методи.

Дастлаб Гипотиреоз моделини яратиш учун оғирлиги 220 г бўлган лаборатория оқ насилсиз эркак каламушлар ишлатилган. Лаборатория ҳайвонларини стандарт парҳез билан озиқлантирилди: а) Ичимлик сувига шакар қўшиб берилди. Умумий озиқ-овқатнинг 0,2% миқдориди холестерин: 1 каламуш учун 4-6 мг. Маргарин умумий озиқ-овқатнинг 2% миқдориди. Гипотиреоз модели каламушларга 21 кун давомида оғиз бўшлиғига махсус ошқозон зонди ёрдамида мерказолил (2,5 мг/100 г тана вазнига) юбориш орқали чақирилди [4]. Марказий нерв тизимининг фаоллигини индукциядан олдин ва кейин баҳолашда «Очиқ майдон» тести ўтказилди. Хулқ-атвор фаоллиги McGraw шкаласи ёрдамида горизонтал ва вертикал ҳаракатлар, бошни пастга тушириш ва груминг хулқ-атвори каби параметрларни баҳолаш орқали баҳоланди. Ҳайвонларда ҳар куни иштаҳанинг ўзгариши, ич қотиши, летаргия ва жун қоплами ҳолатидаги ўзгаришлар каби клиник белгилар кузатилган.

Каламуш бош мияси синаптосомасини ажратиб олиш услуби

Тадқиқотларда каламуш бош мияси синаптосома суспензияси диф-

ференциал центрифугалаш асосида, C.W.Cotman [5] томонидан ишлаб чиқилган ва модификацияланган [6] услуби ёрдамида ажратиб олинди.

Каламуш дислокация усулида жонсизлантирилиб, бош мия соҳаси жарроҳлик усулида очилди ва бош мия ажратиб олинди. Бош мия препарати музли эритма шароитида, 1:10 нисбатда – сахароза (0,32 М), Трис-НСI (0,01 М), ЭДТА (0,5 мМ) таркибли инкубация муҳитида (pH=7,4) гомогенат ҳолатига келтирилди. Тажрибаларда каламуш мия синаптосомалари 2/4 босқичли центрифугалаш асосида [7] ажратиб олинди. Бунда 1–центрифугалаш 4500 айланиш/минут тезликда 10 минут давомида амалга оширилди ва ҳосил бўлган супернатант 14000 айланиш/минут тезликда 20 минут давомида 2–босқичда центрифугаланиб синаптосомалар суспензияси ҳосил қилинди ва тажрибаларда фойдаланилди.

Тажрибаларда Ca^{2+} мавжуд бўлган ($\text{CaCl}_2 - 2 \text{ мМ}$) ва Ca^{2+} мавжуд бўлмаган эритмалардан (2 мМ ЭГТА қўшилган) фойдаланилди. Синаптосомалар суспензиясини тайёрлаш ишлари -4°C ҳарорат шароитида амалга оширилди.

Тажрибаларда фойдаланилган – Нерес, ЭДТА, глюкоза, L-глутамат («Sigma», АҚШ), NaCl, KCl, MgCl_2 , NaH_2PO_4 , CaCl_2 , ДМСО («Реахим», Россия) фирмаларида ишлаб чиқарилган ва тажрибалар учун тозалик квалификациясига эга ҳисобланади.

Синаптосомалар – аксондан узилган туташган нерв учлари, синаптик везикулалар, пресинаптик мембраналар, синаптик комплекслар бўлиб,

улардаги постсинаптик мембраналар, ёки қалинлашган жойлари пресинаптик мембрананинг алоҳида участкалари билан боғланганлигича ва постсинаптик қалинлашган жойлари ажралганлигича қолади.

Каламуш бош мия синаптосомалари $[Ca^{2+}]_{in}$ концентрациясининг ўзгаришини ўрганиш услуби.

Каламуш бош мия синаптосомалари суспензия муҳитида $[Ca^{2+}]_{in}$ концентрациясининг ўзгариши Grynkiewicz ва бошқ. томонидан ишлаб чиқилган услуб [8] ёрдамида ҳисобланди.

Синаптосомалардаги хужайра ички кальций концентрациясини (1×10^8 кл/мл) аниқлашда юқори даражада сезгирликка эга бўлган Fluo-4 АМ флуоресцент зондидан фойдаланилди.

Тажрибаларимизда Fluo-4 АМ реактивинин 1 мМ лик эритмасини олиш учун 1 мг кукун шаклидаги Fluo-4 АМ флуоресценция зондини 135 мкл ДМСОда эритилди. Тажрибадан олдин ДМСОдаги Fluo-4 АМ эритмаси хона ҳарорати муҳитида ушлаб турилди. 2 мл Кребс-рингер буферига 80 мкл синаптосома ва 12 мкл Fluo-4 АМ қўшилди ва 30 дақиқа давомида 37°C да инкубация қилинди. Fluo-4 АМ - кальцийга юқори даражада яқин бўлган флуоресцент Ca^{2+} хелатори ҳисобланади. Fluo-4 АМ хужайра ичидаги кальций ионларини юқори сезувчанлик, паст цитотоксиклик, хужайра ичига яхши кириб борадиган юқори таркибга эга бўлган ацетилметил эфири АМ ни специфик аниқлай олади, хужайра ичидаги эстераза билан парчаланиб кетгандан сўнг, кальций ионлари билан боғланиш учун

хужайрада қолади ва кучли флуоресценцияни ҳосил қилади.

Инкубациядан сўнг, муҳитда қолган бўёқ икки марта ювилди ва стандарт муҳитда центрифугалаш орқали олиб ташланди. Тажрибаларда биз 5×10^6 хужайра/мл ячейкадаги хужайра концентрациясидан фойдаландик [9].

Тажрибаларда Fluo-4 АМ –флуоресценцияси 488 нм тўлқин узунлигидаги нурланиш ёрдамида қўзғатилди ва 506 нм тўлқин узунлигидан нур оқими оқали қайд қилинди ва максимал флуоресценция қиймати (F_{max}) сифатида қабул қилинди. ЭГТА (1 мМ) инкубацияси шароитида, яъни $[Ca^{2+}]_{out} = 0$ мМ шароитда минимал флуоресценция қиймати (F_{min}) қуйидаги тенглама ёрдамида ҳисобланди:

$$F_{min} = [(F_{max} - F_{Fluo-4M} / 3) + F_{Fluo-4M}]$$

Бунда $F_{Fluo-4AM}$ – Ca^{2+} –сезгир зонд – Fluo-4 АМ (5 мкМ) инкубацияси шароитида каламуш мия синаптосомалари флуоресценцияси қийматини ифодалайди. Тажрибаларда флуоресценция интенсивлиги қиймати – спектрофлуориметр (USB 2000, США) қурилмаси ёрдамида қайд қилинди.

Олинган натижаларни статистик қайта ишлаш

Олинган натижалар OriginPro 7.5 (OriginLab Corporation, АҚШ) махсус дастур пакети ёрдамида статистик қайта ишланди. Натижалар *n* марта такрорийликда амалга оширилган тажрибалар натижаларининг $M \pm m$ шаклида келтирилган бўлиб, M – ўртача арифметик қиймат ва m – стандарт хатолик қийматини ифодалайди. Шунингдек, тажриба натижалари

ва назорат гуруҳи ўртасидаги қийматларнинг статистик ишончлилик даражаси Стьюдент t -мезони асосида ҳисобланди ва $p < 0,05$, $p < 0,01$ қийматларда статистик ишончли деб баҳоланди.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

Мерказолил юборилган каламушларда гипотиреознинг классик белгилари, жумладан, иштаҳанинг пасайиши, ич қотиши, летаргия ва қисман жун тўкилиши кузатилди.

Хулқ-атвор кузатувлари назорат гуруҳи билан таққослаганда, гипотиреоз моделлаштирилган каламушларда:


- Горизонтал ҳаракатнинг камайи-

иши (секторларни кесиб ўтиш камайган).

- Вертикал ҳаракатни камайиши (орқа оёқларда тик туриш камайган).
- Ўрганиш ва изланиш функциялар сустлашиши
- Ўз-ўзини парвариш қилиш хатти-ҳаракатларининг сустлашиши.

Ушбу натижалар умумий ҳаракат ва изланувчанлик фаоллигининг сезиларли даражада пасайишини кўрсатади.

Хулқ-атвор таҳлили шуни кўрсатдики, экспериментал гипотиреоз каламушлар назорат гуруҳига нисбатан ҳаракат ва изланувчанлик сезиларли даражада пасайишини кўрсатди (1-расм).



1-расм. Очик майдон тестида 3 дақиқа давомида когнитив хатти-ҳаракатлари.

Ушбу натижалар спонтан ва мақсадга йўналтирилган хатти-ҳаракатларнинг умумий сусайишини кўрсатади, бу гипоактив хатти-ҳаракатлар ҳолатини акс эттиради.

Ҳаракат ва изланувчанлик фаоллигининг пасайиши қалқонсимон без

гормонлар етишмовчилиги марказий нерв тизимининг ишини, еҳтимол унинг дофаминергик, серотонергик ва норадренергик нейромедиаторлар ўтказувчанлигига, шунингдек, митохондриял метаболизмга ва нейронларнинг қўзғалувчанлигига таъсири

орқали ёмонлашишини кўрсатади.

Хусусан, ўзини парвариш қилиш хулқ-атворининг пасайиши одатда нейроендокрин дисрегуляция билан боғлиқ бўлган кўзғалиш, мотивация ёки аффектив ҳаракатнинг пасайишини кўрсатиши мумкин. Бу гипотиреоз кўпинча психомотор кечикиш, когнитив сустлик ва депрессияга ўхшаш аломатлар билан боғлиқ бўлган одамлардаги клиник кузатувларга мос келади [10].

Умуман олганда, бу натижалар қалқонсимон без гормонлари ҳаракат, кашфиёт ва мотивацион хатти-ҳаракат остида ётган нейрон занжирларни модуляция қилишда ҳал қилувчи рол ўйнайди деган гипотезани қўллаб-қувватлайди. Шундай қилиб, гипотиреоз модели каламушларда кузатилган хатти-ҳаракатлар фенотиби

гипотиреоз билан боғлиқ кайфият ва моторика бузилишларининг нейро-биологик асосларини ўрганиш учун ҳақиқий модел бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Ушбу тажрибалардан сўнг гипотиреоз моделлаштирилган каламушлардаги қалқонсимон безнинг ўзгаришларини, қон таркибининг биокимёвий кўрсаткичларини аниқладик.

Экспериментал гипотиреоз моделини текширишда қалқонсимон без Ультратовуш ҳолати (УЗИ аппарат: SonoScape, модель X3(VET)) ускунасида текширилганда назорат гуруҳидаги каламушлар қалқонсимон без ҳажмига нисбатан модел каламушлардаги қалқонсимон без ҳажми 2-3 маротаба катталашганини аниқладик (2-расм).

Соғлом



Гипотиреоз



2-расм. Қалқонсимон безнинг ультратовуш тасвири (SonoScape X3 vet.)

Кейинги босқичларда бош мия гомогенат суспензияси биокимёвий кўрсаткичлари ва қондаги Т3, Т4 ҳамда ТТГ гармонлари кўрсаткичларини Humans Reader HS Biokimyoviy uskunasiда аниқлаб олдик (1-жадвал).

1-жадвал.

**Соғлом ва Гипотиреоз моделлаштирилган каламушлар қонидаги
Т3,Т4 ҳамда ТТГ гармонлари кўрсаткичлари**

| Номи | Т3(нг/мл) | Т4(нг/мл) | ТТГ(uIU/mL) |
|------------|-----------|-----------|-------------|
| Назорат | 1.5 | 91.5 | 2.1 |
| Гипотиреоз | 0.675 | 82.5 | 4.5 |

Каламушларда (HumaReader HS human) текшируви ўтказилганда назорат гуруҳидаги Т3 ва Т4 гармонлари кўрсаткичи модел гуруҳидаги Т3 ва Т4 гармонларига нисбатан юқорилигини аниқладик.

Кейинги тажрибаларда каламуш бош мия гомогенат суспензияси биокимёвий кўрсаткичлари мос равишда назорат гуруҳидаги натижаларга нисбатан паст даражада эканлигини аниқладик (2-жадвал).

2-жадвал.

**Соғлом ва Гипотиреоз моделлаштирилган каламушлар бош мия
гомогенат суспензияси биокимёвий кўрсаткичлари.**

| Номи. | Назорат | Гипотериоз |
|---------------|-------------|--------------|
| Глюкоза | 0,57 m/mol | 0,572 m/mol |
| Триглицерин | 0,426 m/mol | 0,271 m/ mol |
| Холестерин | 0,42 m/mol | 0,45 m/ mol |
| Тотал Протеин | 7,811g/L | 7,59 g/L |
| А.С.Т | 45 U/L | 84 U/L |
| А.Л.Т | 39U /L | 116,5 U/L |


Олиб борилган натижалар фойдаланилган экспериментал модел каламушларда гипотериоз касаллиги асоратлари кузатилганлиги ҳамда улардаги когнитив хусусиятлари ва биокимёвий кўрсаткичлари гипотериоз касаллигида бўладиган ўзгаришларга яқин эканлигини аниқладик.

Экспериментал гипотиреоз касаллиги моделлаштирилган каламушлар бош мияси синапсомаси хужайра ички кальций миқдорини ўрганганимизда модел каламушлар бош мияси

синапсомасида кальций даражаси кам эканлиги кузатилди (3-расм).

Ушбу ҳолатларда қалқонсимон бези гормонларининг нейронал кальций гомеостази, синаптик функцияси ва ион каналлари фаоллигини тартибга солишда муҳим рол ўйнайди [11].

Қалқонсимон без гормонлари, хусусан трийодотиронин (Т3) ва тироксин (Т4) марказий нерв тизимининг ривожланиши ва функционал таъминотида муҳим рол ўйнайди.



3-расм. Экспериментал гипотиреоз касаллиги моделлаштирилган каламушлар бош мияси синаптосомаси хужайра ички кальций миқдори.

Ушбу гормонлар кальций транспортда иштирок этадиган турли хил оқсилларнинг, шу жумладан потенциалга боғлиқ кальций каналлари (VGCC), NMDA-рецепторлари ва кальций АТФазларининг фаоллигига таъсир қилади. Гипотиреозда қалқонсимон без гормонларининг камайиши нейронларда L-типи ва N-типи VGCC нинг регуляциясини сусайтиради, натижада синаптик ўтказувчанлик ҳолатларида кальций оқими камаяди. Бундан ташқари, гипотиреоз ҳолатида ионотроп глутамат рецепторлари, хусусан, NMDA-рецепторлари функционал фаоллигини ўзгариши натижасида кальцийнинг пресинаптик терминаллارга киришини ёмонлашишига олиб келади [12,13,14].

Бундан ташқари, қалқонсимон гормонлар етишмовчилиги митохондриял дисфункция билан боғлиқ бўлиб, бу кальцийнинг хужайра ичидаги буферланишига ва энергияга

боғлиқ кальцийни ташиш жараёнига таъсир қилиши мумкин. Гипотиреоз ҳолатида митохондрия кўпинча мембрана потенциалининг сусайишини ва кальцийни қабул қилиш қобилиятини бузади, бу эса цитозолик кальций миқдорининг кузатилган сусайишига ёрдам беради. Плазма мембранаси кальций АТФазлари (PMCA) ёки $\text{Na}^+/\text{Ca}^{2+}$ алмашинувчилари фаоллигини ошириш каби компенсацион механизмлар цитозол орқали кальцийнинг ошишига ёрдам бериши орқали кальций етишмовчилигини янада кучайтириши мумкин.

Бундан ташқари, гипотиреозда хужайра ичидаги кальцийни сақлаш ва чиқаришда яна бир муҳим органонд эндоплазматик ретикулум дисфункцияси ҳам қайд этилган. Бузилган сарко/эндоплазматик ретикулум Ca^{2+} -АТФазе (SERCA) фаоллиги ЭРнинг кальций динамикасини тартибга солиш қобилиятини пасайтиради,

бу эса синаптик кальций сигнализациясининг умумий бузилишига олиб келади [15,16].

Мерказолил юборилган каламушларда очик майдон тестида кузатилган хатти-ҳаракатларнинг камчиликлари, еҳтимол, қалқонсимон без гормонлар даражасининг пасайиши натижасида юзага келган МНС депрессиясини акс еттиради. Қалқонсимон без гормонлари мияда энергия алмашинувини, нейромедиаторлар синтезини (айниқса дофамин ва серотонин) ва синаптик функцияни тартибга солади. Уларнинг етишмаслиги ушбу жараёнларни бузади, бу эса ҳаракат фаоллиги, мотивация ва изланувчанлик ҳаракатларини пасайишига олиб келади.

ХУЛОСА. Каламушларда мерказолил ёрдамида чақирилган гипотиреоз модели самарали ва ишончли бўлиб, бу клиник аломатлар ва хатти-ҳаракатларнинг ўзгариши билан тасдиқланади. Ушбу тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, каламушларда экспериментал гипотиреоз моделларида қон зардобиди қалқонсимон без гормонлари миқдорининг (Т3 ва Т4) сезиларли сусайишига олиб келади, бу мия гомогенатларидаги биокимёвий фаолликнинг сусайиши ва синаптосомаларда хужайра ичидаги кальций миқдорининг сезиларли даражада сусайиши билан бирга келади. Ушбу натижалар қалқонсимон гормонлар етишмовчилиги потенциалга боғлиқ кальций каналлари, NMDA рецепторлари ва АТФ га боғлиқ кальций насослари функциясини бузиши орқали нейрон тўқималари-

да кальций гомеостазини бузади. Натижада хужайра ички кальцийнинг дисрегуляцияси ва синаптик ўтказувчанликнинг бузилишига ва гипотиреоз ҳолатига хос бўлган нейронлар дисфункциясига олиб келади.

Аниқланган ушбу гипотиреоз моделларида юзага келган турли биокимёвий ва когнитив ўзгаришларни аниқланиши, ушбу касаллик модели чақирилган лаборатория ҳайвонлари келажакда ушбу касалликни даволаш ва профилактика қилишда муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Адабиётлар рўйхати

1. Patil N, Rehman A, Anastasopoulou C, et al. Hypothyroidism. [Updated 2024 Feb 18]. In: StatPearls [Internet]. Treasure Island (FL): StatPearls Publishing; 2025 Jan-. Available from: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK519536/>
2. Sabatino L, Lapi D, Del Seppia C. Factors and Mechanisms of Thyroid Hormone Activity in the Brain: Possible Role in Recovery and Protection. *Biomolecules*. 2024 Feb 7;14(2):198. doi: 10.3390/biom14020198. PMID: 38397435; PMCID: PMC10886502.
3. Zoeller, RT, & Rovet, J. (2004). Время действия гормонов щитовидной железы в развивающемся мозге: клинические наблюдения и экспериментальные данные. *Журнал из Нейроэндокринология*, 16(10), 809–818.
4. Kamilov F.Kh., Ganeyev T.I., Kozlov V.N., Kuznetsova E.V., Maksyutov R.R. The choice of a method of application and dosage of thiamazole for modeling hypothyroidism in laboratory rats. *Journal Biomed*. 2018;(1):59-70. (In Russ.)
5. Cotman C.W. // *Methods Enzymol*. – 1974. – 31. – P.445–452.

6. Крысанова Н.В., Сивко Р.В., Крупко О.А., Борисова Т.А. Метил- β -циклодекстрин, снижая содержание мембранного холестерина, влияет на процесс транспорта глутамата в нервных окончаниях головного мозга // Укр. біохім. журн. – 2007. – Т.79. – №3. – С.29–37.
7. Weiler M.H., Gundersen C.B., Jenden D.J. Choline uptake and acetylcholine synthesis in synaptosomes: Investigations using two differently labelled variants of choline // J. Neurochem. – 1981. – V.36. – P.1802–1812.
8. Grynkiewicz G., Poenie M., Tsien R.Y. A new generation of Ca^{2+} indicators with greatly improved fluorescence properties // J. Biol. Chem. – 1985. – V.260. – P.440–450.
9. Petrishev N.N., Vasina L.V., Seliutin A.V., Chepanov S.V., Selkov S.A. The application of Fluo-3 AM in measurement of level of cytoplasmic calcium in thrombocytes by flow cytofluorometry. // Klinicheskaya Laboratornaya Diagnostika (Russian Clinical Laboratory Diagnostics) – 2017. – V.62, №2. – P. 97-99.
10. Lazarus JH, Bestwick JP, Channon S, Paradise R, Maina A, Rees R, Chiusano E, John R, Guaraldo V, George LM, Perona M, Dall'Amico D, Parkes AB, Joomun M, Wald NJ. Antenatal thyroid screening and childhood cognitive function. N Engl J Med. 2012; 366:493–501.
11. Bernal J. Thyroid Hormones in Brain Development and Function. [Updated 2022 Jan 14]. In: Feingold KR, Ahmed SF, Anawalt B, et al., editors. Endotext [Internet]. South Dartmouth (MA): MDText.com, Inc.; 2000-. Available from: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK285549/>
12. Shahid MA, Ashraf MA, Sharma S. Physiology, Thyroid Hormone. [Updated 2023 Jun 5]. In: StatPearls [Internet]. Treasure Island (FL): StatPearls Publishing; 2025 Jan-. Available from: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK500006>
13. Mayerl S, Muller J, Bauer R, Richert S, Kassmann CM, Darras VM, Buder K, Boelen A, Visser TJ, Heuer H. Transporters MCT8 and OATP1C1 maintain murine brain thyroid hormone homeostasis. J Clin Invest. 2014; 124:1987–1999.
14. Gelen V, Şengül E, Kükürt A. Thyroid Hormones (T3 and T4) and Their Effects on the Cardiovascular System [Internet]. Hyperthyroidism - Recent Updates. IntechOpen; 2023. Available from: <http://dx.doi.org/10.5772/intechopen.109623>
15. Almanza A, Carlesso A, Chintia C, Creedican S, Doultinos D, Leuzzi B, Luís A, McCarthy N, Montibeller L, More S, Papaioannou A, Püschel F, Sassano ML, Skoko J, Agostinis P, de Belleruche J, Eriksson LA, Fulda S, Gorman AM, Healy S, Kozlov A, Muñoz-Pinedo C, Rehm M, Chevet E, Samali A. Endoplasmic reticulum stress signalling - from basic mechanisms to clinical applications. FEBS J. 2019 Jan;286(2):241-278. doi: 10.1111/febs.14608. Epub 2018 Aug 4. PMID: 30027602; PMCID: PMC7379631.
16. Vujovic F, Farahani RM. Thyroid Hormones and Brain Development: A Focus on the Role of Mitochondria as Regulators of Developmental Time. Cells. 2025; 14(3):150. <https://doi.org/10.3390/cells14030150>

РЕЗЮМЕ

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СОСТОЯНИЙ,
БИОХИМИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ
И КОЛИЧЕСТВА КАЛЬЦИЯ В
СИНАПТОСОМАХ МОЗГА У КРЫС С
МОДЕЛЬЮ ГИПОТИРЕОЗА

Казаков Ислон Бахтиярович,
Дедабоев Джобир Исмаил угли,
Хошимов Нозим Нумонжонович

*Институт биофизики и биохимии
при Национальном университете
Узбекистана. Ташкент, Узбекистан*

Khoshimovn@gmail.com

Ключевые слова: синаптосома, когнитивные состояния, гипотиреоз, биохимические показатели, гормоны.

В этом исследовании мы разработали и проверили экспериментальную модель гипотиреоза у взрослых самцов крыс беспородных с использованием мерказолила (2,5 мг/100 г), вводимого перорально в течение 21 дня. Индукция гипотиреоза была подтверждена путем наблюдения за клиническими признаками (снижение аппетита, сонливость, запор, выпадение волос) и поведенческой оценкой с использованием теста «Открытое поле», проанализированного по шкале McGraw. Крысы с гипотиреозом продемонстрировали значительное снижение локомоторного и исследовательского поведения по сравнению с контрольной группой, что указывает на подавленную активность центральной нервной системы. У модельных крыс также было обнаружено изменение биохимических показателей и снижение уровня кальция в синаптосомах головного мозга. Эти результаты подтверждают надежность модели для дальнейших исследований влияния биологически активных соединений на синаптосомальную функцию мозга в условиях гипотиреоза.

SUMMARY

DETERMINATION OF STATES,
BIOCHEMICAL CHANGES AND THE
AMOUNT OF CALCIUM IN BRAIN
SYNAPTOSOMES IN RATS WITH A
HYPOTHYROIDISM MODEL

Kazokov Islam Bakhtiyarovich,
Dedaboev Jobir Ismail ogli,
Khoshimov Nozim Numonjonovich

*Institute of Biophysics and Biochemistry of the
National University of Uzbekistan. Tashkent,
Uzbekistan.*

Khoshimovn@gmail.com

Keywords: synaptosome, cognitive states, hypothyroidism, biochemical parameters, hormones.

In this study, we developed and tested an experimental model of hypothyroidism in adult male mongrel rats using mercazolil (2.5 mg/100 g) administered orally for 21 days. Induction of hypothyroidism was confirmed by observing clinical signs (decreased appetite, drowsiness, constipation, hair loss) and behavioral assessment using the Open Field Test analyzed by the McGraw scale. Hypothyroid rats showed a significant decrease in locomotor and exploratory behavior compared to the control group, indicating depressed central nervous system activity. The model rats also showed altered biochemical parameters and decreased calcium levels in brain synaptosomes. These results confirm the reliability of the model for further studies of the effect of biologically active compounds on brain synaptosomal function under hypothyroidism.

УДК 616.12-005.4:616.24-008.47

ПОКАЗАТЕЛИ БИОМАРКЕРОВ ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНИ ЛЕГКИХ В СОЧЕТАНИИ С ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА

Маматхужаев Зоҳидбек Садирдин угли,
Хужамбердиев Мамазоир Ахмедович, Узбекова Неля Рафиковна

Андижанский государственный медицинский институт

mamatxajayevzohidbek@gmail.com

Ключевые слова: биомаркеры, хроническая обструктивная болезнь легких, ишемическая болезнь сердца, цитокины.

В статье проведен сравнительный анализ показателей про- и противовоспалительных цитокинов в сыворотке крови у больных ишемической болезнью сердца и ишемической болезнью сердца в сочетании с хронической обструктивной болезнью легких. Полученные результаты показали, что показатели провоспалительных интерлейкинов и TNF- α во обеих исследуемых группах были выше показателей противовоспалительного интерлейкина IL-10. Что, несомненно, подтверждает наличие провоспалительной реакции у больных ИБС. Преобладание показателей провоспалительных цитокинов у больных, имеющих сочетание ИБС с ХОБЛ, в сравнении с больными только ИБС указывает на усиление про- и *противовоспалительной реакции при наличии коморбидности ИБС с ХОБЛ.*

Актуальность. Хроническая обструктивная болезнь легких (ХОБЛ) является одной из ведущих причин заболеваемости и смертности населения во всем мире и представляет серьезную экономическую и социаль-

ную проблему, которая из года в год постоянно ухудшается [1, 2, 5]. Клинические проявления ХОБЛ очень разнообразны. Долгое время единственным критерием ХОБЛ являлся показатель объема форсированного выдоха за первую секунду (ОФВ1), однако он не в полной мере отражал тяжесть ХОБЛ для пациентов. Согласно последним рекомендациям GOLD, предлагается комплексная оценка ХОБЛ, основанная на диагностике симптомов, легочной функции, риска обострений, сопутствующих заболеваний [3, 4, 6]. Однако такие признаки ХОБЛ, как респираторные симптомы, потеря массы тела, непереносимость физических нагрузок, эпизоды обострения, снижение качества жизни, госпитализации, летальность не отражают достаточно полно разнообразие патологии и ее тяжесть.

В настоящее время наиболее объективными критериями считаются биологические маркеры. Биомаркеры – это биологические параметры, которые можно объективно измерить и оценить как показатели нормаль-

ных биологических и патологических процессов, так и фармакологических реакций на терапию. Считается, что локальное и системное воспаление могут лежать в основе разнообразного течения ХОБЛ. В этой связи оценка цитокинового статуса больных ХОБЛ с изолированным течением и в сочетании с ИБС представляет определенный интерес.

Цель исследования. Провести сравнительный анализ цитокинового статуса больных ХОБЛ и при сочетании ХОБЛ с ИБС.

Материал и методы. Обследованы 53 больных ХОБЛ II стадии преимущественно бронхитического фенотипа, преимущественно эмфизематозного фенотипа и смешанного фенотипа, 40 больных ИБС, 30 больных с сочетанием ХОБЛ и ИБС, и 20 относительно здоровых добровольцев с отсутствием нарушений функций внешнего лёгочного дыхания и патологий сердечно-сосудистой системы. Уровень интерлейкина — 1 бета (IL-1 β) и фактора некроза опухоли альфа (TNF- α), интерлейкина — 6 (IL-6), интерлейкина — 10 (IL-10), в сыворотке крови определяли методом твердофазного иммуноферментного анализа с использованием стандартных тест-систем ЗАО «Вектор-Бест» (Россия). Полученные результаты статистически обработаны с применением методов вариационной статистики — вычисляли средние арифметические (M), их ошибки (m) и достоверность различий сравниваемых величин (t) по Стьюденту. Достоверными считали результаты при $p < 0,05$.

Результаты. Выявлены определенные закономерности уровней маркеров воспаления у больных ХОБЛ. Так средний показатель IL-1 β в группе больных изолированной ХОБЛ был достаточно высок, в сравнении с практически здоровыми (таблица 1) он был в 3,1 раза выше. Однако, этот показатель был статистически достоверно ниже показателя группы больных с коморбидностью ХОБЛ и ИБС, $28,8 \pm 2,6$ и $38,31 \pm 3,4$, соответственно. Показатель IL-1 β в этой группе был также достоверно выше группы контроля в 4,2 раза. В группе больных ИБС средний уровень IL-1 β ($15,78 \pm 1,6$) был статистически достоверно ниже больных ХОБЛ и с коморбидностью. В группе контроля показатель IL-1 β был достоверно ниже других сравниваемых групп.

Показатель IL-6 имел аналогичную тенденцию: у больных с изолированной ХОБЛ показатель был выше ($25,4 \pm 2,2$), чем в контрольной группе ($7,6 \pm 0,35$), также он был несущественно выше уровня больных ИБС ($23,1 \pm 7,2$), но ниже показателя 3-й группы ($26,6 \pm 6,26$). Показатели 1-й, 2-й и 3-й групп были в 3,3, 3,0 и 3,5 раза выше группы контроля, но между собой отличались несущественно (таблица 1).

Уровень показателей TNF- α в сравнении с интерлейкинами IL-1 β и IL-6 ниже, однако также отмечается превышение показателя у больных ХОБЛ в 2,2 раза, ИБС — в 1,7 раза, ИБС с ХОБЛ — в 2,4 раза в сравнении с показателем контрольной группы. У больных с коморбидностью ИБС с ХОБЛ показатель был несущественно выше больных ИБС и ХОБЛ (таблица 1).

Таблица 1

**Содержание цитокинов в сыворотке крови больных ХОБЛ,
ИБС и с сочетанием ИБС + ХОБЛ**

| Группы обследованных | IL-1 β | IL-6 | TNF- α | IL-10 |
|---------------------------|-----------------|-----------------|----------------|-----------------|
| 1 группа ХОБЛ (n=53) | 28,8 \pm 2,6 | 25,4 \pm 2,2 | 16,7 \pm 2,1 | 12,5 \pm 1,6 |
| 2 группа ИБС (n=40) | 15,78 \pm 1,6 | 23,1 \pm 7,2 | 12,6 \pm 1,8 | 10,3 \pm 0,6 |
| 3 группа ИБС+ХОБЛ (n= 30) | 38,31 \pm 3,4 | 26,6 \pm 6,26 | 17,9 \pm 2,1 | 15,3 \pm 1,14 |
| 4 группа здоровые (n=20) | 9,2 \pm 0,86 | 7,6 \pm 0,35 | 7,6 \pm 0,7 | 8,3 \pm 0,52 |
| p | 1-2 <0,05 | 1-2 >0,05 | 1-2 >0,05 | 1-2 >0,05 |
| | 1-3 <0,05 | 1-3 >0,05 | 1-3 >0,05 | 1-3 >0,05 |
| | 1-4 <0,001 | 1-4 < 0,001 | 1-4 < 0,01 | 1-4 <0,05 |
| | 2-3 <0,001 | 2-3 >0,05 | 2-3 >0,05 | 2-3 <0,001 |
| | 3-4 <0,001 | 3-4 <0,001 | 3-4 <0,001 | 3-4 <0,05 |

Показатели противовоспалительного интерлейкина 10 (IL-10) были еще ниже показателей TNF- α , но имели аналогичную закономерность. Так, показатель больных ХОБЛ был незначительно выше показателя больных ИБС, тогда как у больных с сочетанием ИБС и ХОБЛ показатель был недостоверно, но выше, чем в 1 и 2 группах. Показатель больных ХОБЛ был выше контроля в 1,5 раза, у больных ИБС – в 1,2 раза, а у больных сочетанного течения ХОБЛ+ИБС – в 1,8 раза.

За счет выраженной провоспалительной реакции, выражающейся в значительном увеличении уровней провоспалительных цитокинов и сниженной реакции противовоспалительных цитокинов (IL-10) поддерживается воспалительный процесс в легких и бронхах при ХОБЛ. В патогенезе ИБС также участвуют цитокины неспецифического воспаления, затрагивающего сосудистую стенку и при-

водящего к нарушению коронарного кровотока, что обеспечивает более тяжелое течение ИБС.

Таким образом, полученные данные указывают на то, что при ХОБЛ имеет место значительная общая провоспалительная реакция, которая усиливается при коморбидном течении с ИБС. Присоединение ИБС, которая сопровождается неспецифическим воспалением, способствует сложению эффектов воспалительных реакций организма, что проявляется в увеличении показателей провоспалительных цитокинов, клинически усиливает воспалительные процессы, которые способствуют утяжелению течения ХОБЛ. Также и, наоборот, при первичной ИБС присоединение ХОБЛ обуславливает усиление воспалительных процессов, что отражается в увеличении показателей цитокинов, и ухудшении клинического течения заболевания.

Необходимо отметить, что все исследованные в данной работе цитокины – IL-1 β , IL-6, TNF- α , IL-10 достоверно превышали уровни контрольной группы, что указывает на значительную информативность данных маркеров в диагностике таких серьезных и широко распространенных заболеваний современности как ИБС, ХОБЛ и особенно их коморбидное течение.

Вывод. Из представленных данных можно заключить, что цитокины (IL-1 β , IL-6, TNF- α , IL-10) можно использовать в качестве биомаркеров при оценке тяжести клинического статуса больных ИБС, ХОБЛ и коморбидного течения ИБС с ХОБЛ.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Благоев А.Ю., Ефремова О.А., Ходош Э.М., Алейникова К.С., Дуброва В.А. Роль цитокинов в развитии системного воспаления при хронической обструктивной болезни легких и ожирении. //Ожирение и метаболизм.- 2022.- №4,(19). –С.442-448. <https://doi.org/10.14341/omet12847>
2. Гайнитдинова В.В., Авдеев С.Н., Неклюдова Г.В., Нуралиева Г. С., Байтемерова И. В. Влияние сопутствующих сердечно-сосудистых заболеваний на течение и прогноз хронической обструктивной болезни легких. // Пульмонология.- 2019.- №1,(29).-С.35-42.<https://doi.org/10.18093/0869-0189-2019-29-1-35-42>.
3. Мусаев, Ф. (2025). Роль цитокинов в патогенезе хронической обструктивной болезни легких. //Наука и инновации в интересах национального и глобального развития. -2025.- №1. –С.115–119. <https://inlibrary.uz/index.php/singd/article/view/73102>
4. Наумов А.В., Прокофьева Т.В., Полунина О.С., Сароянц Л.В., Полунина Е.А. Провоспалительные цитокины у больных с острым инфарктом миокарда на фоне хронической обструктивной болезни легких. //Медицинский вестник Юга России.-2020. - №3,(11).- С.40-47. <https://doi.org/10.21886/2219-8075-2020-11-3-40-47>
5. Ташкенбаева Э.Н., Хасанжанова Ф.О., Худойназаров Д.А., Усаров Ш. А. Роль цитокинового профиля в развитии ишемической болезни сердца в коморбидности с хронической обструктивной болезнью легких. //Журнал кардиореспираторных исследований.-2023.- №1.-С.82-87. <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7920090>
6. Трушина Е.Ю., Костина Е.М., Молотиллов Б.А., Типикин В.А., Баранова Н.И. Роль цитокинов IL-4, il-6, IL-8, IL-10 в иммунопатогенезе хронической обструктивной болезни легких. //Медицинская иммунология.- 2019.- №1, Т.1.-С.89-98.

REZUME

**O'PKANING SURUNKALI
OBSTRUKTIV KASALLIGI VA
YURAK ISHEMIK KASALLIGIDA
BIOMARKERLARNI
KO'RSATKICHLARI**

**Mamatxo'jaev Zohidbek Sadirdin o'g'li,
Xujamberdiev Mamazoir Axmedovich,
O'zbekova Nelya Rafikovna**

Andijon Davlat tibbiyot instituti

mamatxajayevzohidbek@gmail.com

Kalit so'zlar: biomarkerlar, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi, yurak ishemik kasalligi, sitokinlar.

Maqolada. o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi bilan birga yurak ishemik kasalligi va yurak ishemik kasalligi bo'lgan bemorlarning qon zardobidagi yallig'lanish va yallig'lanishga qarshi sitokinlar darajasining qiyosiy tahlili keltirilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ikkala tadqiqot guruhidagi yallig'lanish interleykinlar va TNF-a darajalari yallig'lanishga qarshi interleykin IL-10 darajasidan yuqori edi. Bu, shubhasiz, yurak ishemik kasalligi bo'lgan bemorlarda yallig'lanish reaksiya mavjudligini tasdiqlaydi. YIK va O'SOKning kombinatsiyasi bo'lgan bemorlarda yallig'lanish sitokinlar darajasining faqat yurak ishemik kasalligi bo'lgan bemorlarga nisbatan ustunligi YIK va O'SOK bilan birga kelganda yallig'lanish va yallig'lanishga qarshi reaksiyaning kuchayganligini ko'rsatadi.

SUMMARY

**BIOMARKER VALUES IN CHRONIC
OBSTRUCTIVE PULMONARY
DISEASE COMBINED WITH
ISCHEMIC HEART DISEASE**

**Mamatkhuzhaev Zohidbek Sadirdin
ugli, Khujamberdiev Mamazoir
Akhmedovich, Uzbekova Nelya
Rafikovna**

Andijan State Medical Institute

(Andijan, Uzbekistan)

mamatxajayevzohidbek@gmail.com

Key words: biomarkers, chronic obstructive pulmonary disease, coronary heart disease, cytokines.

The article presents a comparative analysis of pro- and anti-inflammatory cytokine levels in the blood serum of patients with coronary heart disease and coronary heart disease combined with chronic obstructive pulmonary disease. The results showed that pro-inflammatory interleukins and TNF- α levels in both study groups were higher than anti-inflammatory interleukin IL-10 levels. This undoubtedly confirms the presence of a pro-inflammatory reaction in patients with coronary heart disease. The predominance of pro-inflammatory cytokine levels in patients with a combination of coronary heart disease and COPD, compared to patients with coronary heart disease alone, indicates an increase in the pro- and anti-inflammatory reaction in the presence of comorbidity of coronary heart disease and COPD.

УЎК: 616.98-036-07-08:578.834.11

ВИРУС ЭТИОЛОГИЯЛИ ЖИГАР ЦИРРОЗИДА СПОНТАН БАКТЕРИАЛ ПЕРИТОНИТ БИЛАН АСОРАТЛАНИШНИНГ БИРЛАМЧИ ПРОФИЛАКТИКАСИ ВА ДАВОСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Мухаммадиева Мушарраф Иброхимовна

Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институти

muxammadiyeva.musharraf@bsmi.uz

Калит сўзлар: жигар циррози, гепатит В, D ва С вируслар, субкомпенсация, IL-4, IL-6, IL-8, прокалцитонин

Аннотация. Цирроз жигарнинг маълум ва кенг тарқалган сурункали ҳолати бўлиб, яқинда унинг иқтисодий ва жисмоний аҳамияти, шунингдек, механизмларини ўрганишга қизиқиш ортмоқда.

Циррозда жигар фаолиятининг бузилиши иммун тизимининг гуморал ва ҳужайравий компонентларини ўзгартиради ва бактериялар транслوكациясини рағбатлантиради, бу циррозга чалинган беморларни инфекцияларга нисбатан жуда юқори сезгир қилади ва кейинчалик декомпенсацияга олиб келади.

